**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**ROZAXON XAYDAROVA**

# AN’ANAVIY CHOLG‘U IJROCHILIGI

## (Chang cholg‘usi)

*Oliy ta'lim muassasalari talabalari*

*uchun o‘quv qo‘llanma*

5150700 - Cholg‘u ijrochiligi: (an’anaviy cholg‘u ijrochiligi)

**Toshkent 2018**

Mazkur o‘quv-qo‘llanma O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘u ijrochiligi)” ta’lim yo‘nalishi bakalavr bosqichida ta’lim oladigan changchi sozandalar uchun mo‘ljallangan. O‘quv-qo‘llanma “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” fan dasturi asosida ishlab chiqilib, chang sozining umumiy jihatlari, sozandaga qo‘yiladigan talablar, ular ijro etadigan asarlar va ularning o‘zlashtirilishi, ijro borasida kasbiy tavsiyalar va ijro amaliyoti uchun bir qator musiqiy namunalar keltirilgan.

Biz ushbu kitobimizda an’anaviy chang ijrochiligi haqida so‘z yuritib, tarixiy va amaliy jihatlari xususida ma’lumot beramiz. Xususan, qo‘llanmada chang sozining yaratilish tarixi, o‘lkamizda yashab o‘tgan va ijod qilayotgan changchi ustoz san’atkorlarning ijrochilik uslublari xususida mushohada qilamiz.

Milliy musiqa yo‘nalishidagi sozanda va ijrochilar og‘zaki an’anadagi mumtoz musiqa janrlari, ya’ni maqomlarni egallashlarida ushbu o‘quv qo‘llanma kerakli bir manba sifatida xizmat qiladi.


**Mas’ul muharrir:**

**O‘zbekiston davlat konservatoriyasi**
**professori: Salohiddin Azizboyev**

**Taqrizchilar:**

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent
**Abdurahmon Xoltojiyev**

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti **Malika Ziyayeva**



**© O‘ zbekiston davlat konservatoriyasi**

**Tahrir-nashriyot bo‘limi**

**© R.Xaydarova, 2018.**

MUNDARIJA:

**KIRISH**

**I BOB. An’anaviy chang ijrochiligi.**

1. Chang cholg‘usining tarixi
2. Alisher Navoiyning chang ijrochiligiga oid qarashlari
3. Mavlono Mirak Buxoriy-Changiy
4. Darvesh Ali Changiy
5. Chang cholg‘usining takomillashtirilishi
6. Chang cholg‘usi haqida ustozlarning fikri

**II BOB. Chang cholg‘usining mohir sozandalari.**

1. Usta Ro‘zmatxon Isaboyev
2. Fozil Xarratov
3. Faxriddin Sodiqov
4. Abdurahmon Xoltojiyev

**III BOB. An’anaviy chang ijro uslublari.**

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida chang cholg‘usi ijrochiligini o‘rgatish yo‘llari
2. Chang cholg‘usida ijro bezaklari
3. Chang ijro dasturlarining tahlili

**Xulosa**

**Glossariy**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

# KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017 yil 25 dekabr kuni madaniyat va san’at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi va unda prezidentimiz shunday so‘zlarni alohida ta’kidladilar: “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim”. Darhaqiqat, milliy san’atimizni yoshlarimizga o‘rgatish eng muhim masalalardan biri. Shu ma’noda, o‘z kasbimizdan kelib chiqqan holda milliy asarlarimizni chang cholg‘usi jo‘rligida yoshlarimizga o‘rgatish bizning vazifamizdir.

O‘zbek xalq cholg‘u asboblarida ijro etish san’ati o‘z taraqqiyotining ko‘p asrlik an’analarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. 1933 yildagi Ayratom shaxristoni arxeologik qazilmalarida topilgan madaniy boyliklar, qadimiy adabiy manbalar, o‘zidan ilgari turli musiqa cholg‘lari mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Eramiz boshlarida turli tuman xalq cholg‘ularidan kundalik turmushda, ovda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarida, xalq sayillarida ijrochilikda keng foydalanilgan. Xalq musiqa cholg‘u asboblari asrlar davomida insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan. Tasviriy san’at asarlari, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII asridayoq ikki turdagi xalq cholg‘u ansambli mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘rta asrlarda xalq musiqa ijodining og‘zaki an’analari keng tarqalgan bo‘lib, ular cholg‘u musiqasinnig har xil janrlari, turkumlari, rang-barang musiqa san’ati turlari, ulkan madaniy meros sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

O‘zbek xalq musiqa san’ati va milliy sozlari ko‘p asrlik tarixi davomida o‘z an’analari, ijrochilik qonuniyatlari asosida shakllanib, badiiy mohiyatini saqlab, zamon ruhida rivojlanib, boyib kelmoqda. Shulardan biri chang sozi o‘zbek milliy cholg‘ulari orasida o‘ziga hos nafis va jozibali ovozi hamda tarannumi boyligi va

murakkab tuzilishga egaligi bilan ajralib turadi. Yozma manbalarda qayd etilishicha, chang tarixida Messopotamiyadan to Xitoygacha boʻlgan hududlarda keng qoʻllanilgan. Abu Nasr Farobiyning yozishicha shohrud Samarqandlik Xulays bin Ahvas Soʻgʻd elida ixtiro etilgan boʻlib, keyin boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Qadimiy changning shakli nomaʼlum, lekin u xozirgi koʻrinishda ham boʻlmagan. Qadimgi manbalar va miniatyuralardagi tasvirlarga koʻra u arfasimon boʻlgan. Xofiz Darvesh Ali “Tuhfatus surur” nomli asarida turli davr musiqashunoslari va sozandalari haqida maʼlumot keltirgan jumladan,oʻrta asrlarda yashab ijod qilgan va oʻz davrida beqiyos isteʼdod sifatida tanilgan mohir changchi Mavlono Zaynobiddin Rumiyni alohida eʼtirof etib, chang hamda ud sozida mohir sozanda boʻlganiga eʼtiborni qaratadi. Maʼlumki, Darvesh Alining oʻzi ham musiqashunos boʻlibgina qolmay, iqtidorli sozanda sifatida ham shuhrat qozongan. Chang sozini maromiga yetkazib chalgani tufayli unga Changiy tahallusi berilgan. Darvesh Ali changiyning oʻzi esa changni “Sozlarning kelinchagi” deb atagan.

Manbalarda yozilishicha, XVIII asrdan boshlab bir xalqda oʻz ruhiyatiga moslashgan arfasimon cholgʻular yuzaga kela boshlagan. Oʻzbek xalqida esa maxsus tayoqchalar bilan urib chalinadigan trapetsiya shaklidagi chang yaratilgan va takomillashish davrini oʻtagan. Ijro holati yerda oʻtirgan holatda boʻlgan. Anʼanaviy mumtoz musiqa ijrochiligida ilk qoʻllanilgan changlarni usta Zauniddin Ayxaev hamda usta Usmon Zufarovlar yaratishgan. Shu davrda ustoz sozanda Faxriddin Sodiqov changning diatonik holatini oʻzgartirib, xromatik tuzilishga keltiradi. Chang cholgʻusida milliy kuylar bilan bir qatorda sharq xalqlari va yevropa asarlarini ijro etish mumkin boʻladi.

Chang oʻzbek milliy cholgʻulari orasida oʻziga hos nafis va jozibali sadosi hamda murakkab tuzilishga ega boʻlgan sozlardandir. Uning poʻlat torlari ijrochining mohir qoʻllari taʼsirida sehrli nagʻmalar taratib kishi qalbiga xushnudlik baxsh etadi.

Arxeologik yodgorliklar, devor va toshlarga tasviri tushirilgan lira va arfaga cholgʻulariga oʻxshash torli cholgʻular chang va qonun sozlarining ibtidoiy koʻrinishlari boʻlib ularning juda qadimiyligidan darak beradi. Qadimgi

Xorazmshohlarning Afrig'iylar davrigacha bo'lgan qarorgohi Tuproqqal'adan topilgan devorga o'yilgan sozandalar suratlari ichida uch burchakli arfaga o'xshash cholg'u ushlaganlari ko'zga tashlanadi. XVII asrda yashab o'tgan Darvesh Ali Changiy o'zining musiqiy risolasida changni cholg'ularning Zuhrosi, ya'ni kelinchagi deb ta'riflaydi va uni XI–XII asrlarda O'rta Osiyoga Xitoydan kirib kelganligini bayon etib, ushbu cholg'u Chin-Mochinda budda ibodatxonalarida diniy qo'shiqlarga jo'r bo'lish uchun qo'llanilganligini yozadi. Alisher Navoiy ham o'zining «Sabbayi Sayyor» dostonida malika Diloromni mohir chang ijrochisi sifatida ta'riflaydi.

Torli cholg'ularning kelib chiqishi to'g'risida turli rivoyatlar mavjud bo'lib, shulardan birida aytilishicha: - «Fisorg'us, ya'ni Pifagor hakimga tushida bir mo'ysafid chol, - ertaga bozorga chiqib paxta titadigan naddoflar rastasiga borsang mo'jiza ko'rasan» debdi. Fisog'urs bozorga borsa paxta titadigan naddoflar uzun kamonga esqilgan ichakni tarang tortib paxtaga tekkizib maxsus uskuna bilan chertib paxta titayotgan emish. Torni paxta titish uchun tortib chertgan paytda dring-dring degan yoqimli ovoz chiqarmish. Buni ko'rgan olim uchburchak shaklidagi yoyga esqilgan ichak va ot yolidan tor qilib ulardan yettitasini tarang tortib bu yettita tovush musiqaning qonuni debdi va qonun nomi ham shundan qolgan deyiladi. Yana bir rivoyatda Yunoncha kanon - qaytarish, ya'ni kichkina bir musiqiy mavzuni boshqa pardada ketma-ket takrorlanishiga kanon deyiladi. Qonun so'zining asosi ham shundan qolgan deb ta'riflanadi.

Darvesh Alining risolasiga ko'ra qonun qadimgi Rum, ya'ni hozirgi Turkiya eliga mansub oltita turli sozlanishdagi juftlangan torlardan iborat tirnama cholg'u bo'lib, barmoqlarga angishvona-noxun kiyib chalinadi. Uning ikki daryo oralig'ida qo'llanilishda bo'lganligini qadimgi miniatyuralardan bilish mumkin. Shuningdek, Xorazmda bu cholg'u uchun «qonun uforisi» nomli kuy ham mavjud. Qonun cholg'usining O'zbekistonga qayta kirib kelganiga uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Shunday bo'lsada ushbu soz orkestrlarda, ansambllarda va xonandalarga jo'rnavozlikda o'z o'rnini egalladi.

Chang cholgusi esa trapetsiya shaklidagi tovushni kuchaytiruvchi mevali yog‘ochdan yasalgan qutidan iborat bo‘lib, unga turli qalinlikdagi 14 ta sim tortilgan. Ular ikki guruhga bo‘lingan va shulardan 12 tori unison, ya’ni bir xilda sozlanib simlari uchlangan holda uch hissa ko‘paytirilgan. Shuning uchun umumiy simlar soni 40tadan ortiq. Changning tovush ko‘lami, ya’ni diapazoni bir yarim oktavadan ortiq.

Chang sozi hozirgi kunda ham yetakchi cholg‘u hisoblanib, sozandalar ansambllarida keng foydalaniladi. Ijrochilik jamoalarida ushbu cholg‘u o‘ziga xos fundament, ya’ni poydevor vazifasini o‘taydi. Qadimda afsonaviy Dilorom Changiy, Darvesh Ali Changiylar mazkur cholg‘uning piri hisoblansa, o‘tgan asrning boshlaridagi ustozlardan Matyusuf Xarratov uni takomillashtirish uchun ko‘p ishlarni qilgan. Bu ishni uning o‘g‘illari Komil va Fozil Xarratovlar davom ettirgan. Shuningdek, Faxriddin Sodiqov, Mamasiddiq Madaliyev, Ahmad Odilov va ularning shogirdlari Rustam Ne’matov, Tilash Xo‘jamberdiev, Tuygun Otaboyev, Temur Mahmudov, Fazilat Shukurovalar hozirgi yosh avlodning ustozlari hisoblanishadi.

Hozirgi davrning mohir ijrochilari Abdurahmon Xoltojiyev, Komil Shermatov, Fazilat Shukurova va boshqalar zamonamizning yetuk ijrochilari hisoblanadi. Ular ham ustoz darajasiga yetib o‘z shogirdlarini yetkazib chiqarmoqdalar.

# I BOB. An’anaviy chang ijrochiligi

## 1.Chang cholg‘usi tarixi

O‘zbek xalqining boy musiqiy tarixida cholg‘u ijrochiligi juda katta o‘rin tutadi. Buning sabablaridan biri, bir ovozli, ya’ni monodiya shaklida rivojlanadi. Tabiiyki, monodik ijroda sozlar xilma–xil, rang–barangligi bu uslubning jozibadorligini ta’minlovchi omillardan biridir. Al-Farobiyning musiqa risolasida ta’kidlanishicha, cholg‘uijrochiligi ikki xil yo‘nalishga bo‘linadi: jo‘rovozlik va yakka ijrochilik. Farobiyning aytishicha, soz ovozga jo‘r bo‘ladi yoki ovozni boshqarib boradi. O‘zbek xalqining musiqa san’ati o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida o‘z an’analarini, ijrochilik qonuniyatlarini va badiiy mohiyatini saqlabgina qolmasdan xozirda rivojlanib yangicha talqinda boyimoqda.

Barcha musiqa cholg‘ulari kabi qadimgi Chang qachon ixtiro qilingani to‘g‘risida aniq ma’lumotlar mavjud emas. Lekin, arxeologik qazilmalardan topilgan yodgorliklarda tasvirlangan arfa (chang), bu cholg‘uni qadimiyligidan dalolat beradi. Ularga ko‘ra, bu soz dastlab kichik hajmda tirnab chalinadigan cholgu bo‘lib, u o‘zining jarangdorligi va tovush tarovatining boyligi bilan ajralib turgan. Ushbu cholg‘u arab musiqasida «Qonun», Eronda «Santur», o‘zbek va tojik an’analarida «chang» deb nomlangan. Uzoq yillar davomida arfa (chang) cholg‘usining vatani Misr hisoblangan va u qadimgi yodgorliklarda o‘z aksini topgan (eramizdan avv.3000-2500 yy.). Arfa (Chang) cholg‘usining besh xili, ya’ni uchta burchakli va ikkita yoysimon ko‘rinishlari mavjud ekanligi mutaxassislar tomonidan isbotlab berilgan. 1940 yili Surxondaryo viloyati, Termiz shahri yaqinidagi Ayritom qo‘rg‘onida arxeologik qazishmalar chog‘ida chang cholg‘usining qadimgi shakli bo‘lgan arfa chalayotgan ayol frizi topilgan. Bu cholg‘u uch burchak ko‘rinishda bo‘lib, o‘n uchta tori bo‘lgan. Tarixchi olim K.Trever qayd etganidek, “Ayritom qo‘rg‘onida topilgan frizlarning barchasi mahalliy hunarmandlar tomonidan yasalgan va ular eramizdan avvalgi XVIII asrga

borib taqaladi”[1]. Shu ma’noda chang cholg‘u ijrochiligi musiqa san’atimizda juda qadimgi tarixga egadir.

Chang cholg‘usi haqida O‘rta asr allomalarining musiqiy risolalarida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, musiqashunoslik fanining asoschisi Abu Nasr Muhammad al-Farobiyning yozishicha bu cholg‘u Samarqandlik Xulays ibn Axvas tomonidan So‘g‘dda ixtiro etilgan bo‘lib, so‘ngra Bag‘dodda va boshqa mamlakatlarda tarqalgan ekan. Umuman «chang» arab, fors va turkiy adabiyotlarda xilma-xil bo‘lib, egri, chang, chog‘ona, shudurg‘u, yaturg‘on atamalari ostida berilgan. “Chang” nomini XIII asrda uchratamiz. Qutbiddin Sheroziy (XIII asr) “Durrat-ut toj” (Musiqa haqida dur asar) risolasida qonun, nusxa, navxi kabi qadimgi cholg‘ular asarida Chang cholg‘usini ham tilga olib, “tovushi ochiq torlardan sadolanuvchi cholg‘ular” tarkibiga kiritadi.

XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida Ozarbayjonning Marog‘ shahrida tug‘ilgan bo‘lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida-Samarqandda o‘tgan va Hirotda vafot etgan Abduqodir G‘oyibiy (Marog‘iy)ning «Jama al-alxan fi-ilm al-musiqiy» («Musiqa ilmida ohanglar to‘plami») risolasida qonun cholg‘usini ta’riflab – cholg‘u trapetsiya shaklida yasalib sado taraladigan quti, jami yetmish ikkita uchtalik mis simlar tortilib tarang sozlangan, tovushqatori 24 boshqichdan iborat bo‘lganligi haqida bayon etadi.

XVII asrda yashab ijod qilgan Darvesh Ali Changiyning risolasida nafaqat musiqa nazariyasi, balki turli davr ijrochilari va saroy qoshida keng tarqalgan musiqa cholg‘ularidan bo‘lgan tanbur, chang, nay va qonun haqida ham to‘xtalib o‘tadi.

Darvesh Ali Changiy changning qadimiy o‘tmishi haqida ma’lumot beradi. Uning aytishicha changda 26 ta tor va 7 ta lad bo‘lgan. Bu changning 7 ladida 7 maqomni ijro etishgan:

1-laddan “Rost” maqomi boshlangan

2-laddan “Navo” maqomi boshlangan

[1] Тревер К. Памятники греко – бактрийского искуства. -М.-Л., 1940.

3-laddan “Xijoz” maqomi boshlangan

4-laddan “Zangura” maqomi boshlangan

5-laddan “Xusayni” maqomi boshlangan

6-laddan “Kuchek” maqomi boshlangan

7-laddan “Iroq” maqomi boshlangan

Lekin usta changchilar ushbu changda 12 maqomni chalishga muvaffaq bo‘lganlar.

Darvesh Ali–ibn Mirzo Ali ibn Xo‘ja Maxmud Marvariz shu cholg‘uning mohir ijrochisi bo‘lgan. U yoshligidan changga mehr qo‘ydi va keyinchalik shuxrat qozondi. Shu davrning yana bir mohir changchisi Mavlono Zaynuliddin Rumiy edi.

Darvesh Ali ta’kidlashicha, u juda ko‘p peshrav va kuylar ijod qilgan. Ulardan eng ko‘zga ko‘rinarlisi 3 ta peshrav edi:

Birinchisi, Ehson. Husayni maqomining pardalarini o‘z ichiga oladi.

Ikkinchisi, Soqil-Iroq maqomi pardalari asosida ijod qilingan.

Uchinchisi, Peshravi ufor. Xusayniy maqomining xonalaridan tarkib topgan.

Yana Darvesh Ali Changiy qadimda (changni) kelib chiqishi haqida shunday yozadi: chang qadimiy cholg‘u bo‘lib, Mesopotamiyadan tortib, to Xitoygacha bo‘lgan juda katta masofani egallagan. Buxoroda (XVIasr) Shayboniylardan bo‘lgan Abdulla xonning zamondoshi Xo‘jai Kalon (Buyuk Xo‘ja, shayx xo‘ja Sa’d) og‘ir dardga giriftor bo‘ladi. Tabib Sulton Muhammad uni davolab, kasalini yengishda chang mashqlarini tinglashni tavsiya etadi. Xo‘ja Sa’d Darvesh Alini xuzuriga chorlaydi. Darvesh Ali uch oy davomida Sa’d qoshida chang chaladi. Xoja butunlay tuzalib ketadi.

Risolada keltirilgan yana bir rivoyatga ko‘ra, qadimda buyuk Nushiravon zamonida (531–579) mashhur changchi Piri Changiy yashagan. Eron arablar qo‘liga o‘tadi, undan keyin Xalifa Umar Eron musiqasini ta’qib ostiga oladi. Piri Changiy o‘zini xech kimga keragi yo‘qligidan xafa bo‘lib, Madinaga Yasrab qabrini ziyorat qilgani boradi. U o‘z yoniga changni qo‘yib, nola qila boshlaydi: “Men doimo Sen uchun chaldim, endi meni ta’qib ostiga olishgani uchun Sening oldingga oxirgi marta chalish uchun keldim. Bir narsani sendan so‘rayman, ipak torlarimgagina haq

berishsa.” Yig‘lab va qattiq oh urib o‘zining oxirgi mashqini ijro etadi. Changni boshiga qo‘yib uxlab qoladi. Shu vaqt xalifa Umarga g‘oyibdan ovoz keladi: “Bizning bir do‘stimiz bor, u Yasribning qabri (ustida) yonida. Ul kimsaga xazinadan 700 dinor olib borib ber. Yana zoriqsa bemalol tashrif buyursin.” Umar 700 dinorni olib Yasrib qabriga boradi. U yerda Piri Changiydan boshqa kimsa yo‘q edi. U hayron bo‘lib tursa, Changiy uyg‘onib qoladi. Umar unga 700 dinorni beradi va aytadi: “Alloh seni o‘ziga do‘st deb bildi. Men ham sening do‘stingman. Boshingga mushkul ish tushsa qoshimga kelgin. Sening soz chertishing Egamni o‘ziga rom etdi” – deydi[2]. Taniqli fors shoiri Jaloliddin Rumiy (1273 yil) o‘zining “Masnaviyi ma’naviy” asarida bu voqeani yoritib bergan.

Shuningdek, bu cholguning takrorlanmas sifatini o‘z davrining buyuk shoirlari Navoiy, Umar Hayyom, Dehlaviy va b. ham asarlarida bayon etganlar.

Chang cholg‘usi asrlar davomida takomillashib, avloddan-avlodga, ya’ni bizgacha yetib kelgan, musiqiy hayot taqozosi bilan o‘zbek xalq cholg‘ularini zamonga xos takomillashtirish zaruriyati tug‘ildi. 1940-yillarda xalq cholg‘ularini yasash va takomillashtirish bo‘yicha maxsus ustaxonalar ochildi. Namangandagi musiqa ustaxonasiga taniqli xalq sozandasi Usta Ro‘zmat Isaboyev (1885-1964) boshchilik qildi. U ijrochilar tomonidan keng qo‘llanilgan yarim xromatik changni bir necha nusxasini yasab tayyorladi. Toshkentdagi ustaxonada mashhur cholg‘ular ustasi Usta Usmon Zufarov (1899-1981) chang cholg‘usini yangi nusxalarini yaratdi.

Xorazmda esa mashhur xalq sozandasi, bastakor Matyusuf Xarratov changni takomillashtirish ustida sabot bilan ishladi. Izlanishlar natijasida Matyusuf Xarratov sozandalar Faxriddin Sodiqov, o‘z o‘g‘li Fozil Xarratov va Axmad Odilovlar bilan hamkorlikda changning yuqori pardalarini qo‘shimcha torlar va xarraklar hisobiga kengaytiradi. Ushbu o‘zgarishlarni sozandalar ma’qullashadi. Shunday qilib u ijrochilik amaliyotiga tadbiq etiladi. Cholg‘uga kiritilgan yana bir yangilik, cholg‘u bir oktava ko‘tarib sozlashga moslashtirildi. Bu esa birmuncha changning

[2] Семёнов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервеш-Али Чанги (XVII в.) –Т., 1946

ixchamlashuviga sabab bo‘ldi. Chang cholg‘usining yangi nusxalarini yaratish San’atshunostlik instituti tasarrufidagi musiqa ustaxonasining ustalari: U.Zufarov, Z.Zokirov, S.E.Didenkolarning zimmalariga yuklanadi. Yangi nusxadagi chang taniqli ijrochi hamda tadqiqodchi - Ashot Ivanovich Petrosyans tashabbusi bilan Toshkent musiqa bilim yurtida va u rahbarlik qilayotgan O‘zbekiston davlat filarmoniyasining o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida sinaldi va ma’qullandi (1943y.). Natijada chang sozi ta’lim tizimiga kiritildi. Shoakbar Shoakramov, Abdusamat Ilyosov, Ashraf Ashrapov, Mahammadjon Rasulov va Ahmad Odilovlar o‘quv dargohida ta’lim olgan birinchi ijrochilardan bo‘lishdi va bu ijro uslubi tizimi yo‘lga qo‘yildi, ko‘zlangan maqsad o‘z tastig‘ini topdi. O‘ziga xos yaratilgan chang cholg‘usi tez orada ijrochilik amaliyotida qo‘llanila boshladi va keng ommalashdi. Musiqa cholg‘ularini yasovchi ustalar chang soziga qalb qo‘ri, ko‘z nuri va erishgan tajribalarini sarflab, naqshinkor bezakli changlar yasay boshladilar. Changning tovush sifati, sadolanishi va jarangdorligi, tarannum jozibasi ko‘p sonli tinglovchilar e’tiborini o‘ziga jalb etdi. Bu tipdagi chang cholg‘ulari O‘zbekiston radiosi cholg‘u ansamblida, Muqimiy nomidagi respublika musiqali drama teatrining cholg‘ular orkestri jamoasida, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi tasarrufidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambllari tarkibida o‘z o‘rnini topdi.

Shu bilan birga chang cholg‘usini tizimli tarzda takomillashtirish ishlari to‘xtamadi. A.I.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh soz ustalari va sozandalar: Usta Usmon Zufarov, S.E.Didenko, M.Xarratov, A.Odilov, F.Xarratovlar chang cholg‘usini yanada takomillashtirishga erishdilar. Ular tovushqator tizimi asosiga xromatik, ya’ni o‘n ikki bosqichli ravon oraliqlarga bo‘lingan tovushqator qabul qilindi. Pirovardida, kichik oktava «Sol» tovushidan, uchinchi oktava «Mi» tovushigacha diapazon kengaytirildi. Keyinchalik A.Odilov o‘z ustozi A.Petrosyans bilan hamkorlikda nafaqat changning yangi namunasi, balki «Chang ijrochiligi maktabi»ni yaratishga muvaffaq bo‘lishdi: birinchidan – cholg‘uni tovush jarangdorligi sifati yangilandi, tovush kuchi sezilarli darajada oshdi, tovush diapazoni kengaytirildi; ikkinchidan – mustahkam va sifatli changlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish maqsadida chang yasashning butunlay yangi texnologiyasi

joriy etildi; uchinchidan-Changning tovush chiqarish yo‘llarini to‘g‘ri aniqlab, ularni ilmiy-nazariy yo‘sinda isbotlab, chang ijrochiligini yangi «maktab»ida o‘qitishni tadbiq etish kabi ishlar amalga oshirildi. Changning diapazoni yanada kengaytirilib, uning tovushqatori 2 tonga ko‘paytirildi. Yangi chang cholg‘usiga tovush so‘ndirg‘ich mexanizmi o‘rnatildi. O‘ng oyoq yordamida tepki (pedal) vositasida tovush so‘ndirish uslubi joriy etildi va bu taklif chang ijrochilari va musiqiy- jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, amaliyotga tadbiq etildi.

Takomillashtirilgan changning asosiy turi bo‘yicha yuqori tovushli, o‘rta va past tovushlarga mansub changlar oilasi: chang-prima, chang-pikkalo, chang-tenor, chang-bas cholg‘ulari yaratildi. Mavjud changning ijrochilik imkoniyatlari kengaytirildi, yangi tovush chiqarish yo‘llari yaratildi. Chang chog‘usida yangi tovush chiqarish yo‘lari, ijrochilik uslublari A.Odilov va A.Petrosyanslarning «Chang darsligi»da kengaytirilib, rasmiylashtirildi. Endilikda chang sozida tovush chiqarish yo‘llari bittadan to‘rtagacha oshirildi. Bular:

1. Urma zarb-asosiy tovush chiqarish yo‘li, chang cho‘plarini torlarga birin-ketin urib tovush hosil qilish;

2. Cho‘p chertmak. Pizzicato col legno (pizz.col legno)- cho‘plarni orqa yassi qismi bilan tirnab (chertib) ijro etish;

3. Barmoq chertmak. Pizzicato (pizz.)-qo‘l barmoqlari bilan chang torlarini mayin chertib chalish;

4. Cho‘p tarak. Col legno (col leg.)-cho‘pning orqa yassi qismida chang torlarini chiqillatib urib chalish.

Turli manbalarda e’tirof etilishicha, chang cholg‘usiga o‘xshash sozlar, jahon xalqlarining musiqiy ijrochilik amaliyotida ham vaqti-vaqti bilan ta’mirlangan va takomillashtirilgan. Hozirgi kunda changsimon sozlar orkestr va ansambl ijrochiligida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ulardan ayrimlarining nomlarini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiqdir:

1. Simbal (Vengriya, Polsha,Ukraina, Belorus xalqlari cholg‘usi);

2. Santur (Eron, Kavkaz orti xalqlarida uchraydigan cholg‘u);

3. Gusli (Rus xalq cholg‘usi);

4. Kokle (Latish xalq cholg‘usi);

5. Kantele, kankles (Litva xalq cholg‘usi);

6. Kannel (Estoniya xalq cholg‘usi);

7. Koto (YAponiya xalq cholg‘usi):

8. Yochin, yatag‘ (Buryatiya xalq cholg‘usi).

Qayd etilgan cholg‘ularda ham cho‘plar bilan torlarni urib chalish, qo‘l barmoqlari yoki maxsus chertmaklar bilan torlarni chertib tovush chiqarish yo‘llari mavjud. Ularning o‘ziga xos ijrochilik maktablari ham yaratilgan. Yangi yo‘nalishdagi “Chang maktabi”ning shakllanishi, chang cholg‘usini takomillashtirilishi natajasida ijrochilik amaliyotida o‘ziga xos chang ansambllirini tuzish imkoniyatini yaratdi. Qadimiy cholg‘ularimizdan biri hisoblangan noyob chang cholg‘usiga mohir ustalarning ijodiy izlanishlari tufayli qaytadan yangi hayot baxsh etildi.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Chang cholg‘usi boshqa o‘zbek milliy cholg‘ularidan nimasi bilan ajralib turadi?
2. Darvesh Ali Changiy changning qadimiy o‘tmishi haqida qanday ma’lumotlarni qoldirgan?
3. Piri Changchi haqida nimalarni bilasiz?
4. Chang cholg‘usi boshqa xalqlarda qanday nomlar bilan yuritilgan?
5. Chang cholg‘usi oilasi haqida nimalarni bilasiz?
6. Turli xalqlarning chang cholg‘usiga o‘xshash sozlari haqida gapirib bering.

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar.***

1. Chang cholg‘usi tarixiga oid ma’lumotlarni izlab to‘plash.
2. Chang cholg‘usining shakllanish jarayoni bilan bog‘liq ma’lumotlarni tahlil qilish.
3. Turli olimlarning chang cholg‘usi borasidagi fikrlarini to‘plash va tahlil qilsh.

4. Chang cholg‘usi tarixi va yaralishi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan adabiyotlarni o‘qish.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. –T., 1990
2. Тревер К. Памятники греко – бактрийского искуства. -М.-Л., 1940
3. Ash-Sheroziy. Жемчужина короны. // Музыкальная эстетика народов стран Востока. Часть тексты. –М. 1967
4. Rumiy J. Masnaviy ma’naviy. 2-kitob. –T., 2005
5. Navoiy A. Xamsa. –T., 1960
6. Семёнов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервеш-Али Чанги (XVII в.) –Т., 1946


## 2.Alisher Navoiyning chang ijrochiligiga oid qarashlari

Alisher Navoiyning barcha asarlarida musiqa san’atiga oid ko‘p fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Bu borada uning yirik asari “Xamsa”da ham juda muhim ma’lumotlar va yondashuvlar bayon qilib o‘tilgan.

Ma’lumki “Xamsa” asari qisqa muddat – 1483-1485 yillarda yozilgan bo‘lib, uning tarkibi besh dostondan iborat:

1. “Hayrat ul-abror”
2. “Farhod va Shirin”
3. “Layli va Majnun”
4. “Sabbai Sayyor ”
5. “Saddi Iskandariy”

Navoiyga qadar Nizomiy-Ganjaviy (XII asr), Xusrav Dehlaviy (XIV asr) va Abdurahmon Jomiy (XV asr)lar fors-tojik tilida “Xamsa” yozishgan. O‘zbek adabiyotida faqat Navoiy “Xamsa” asarini yozgan.

Alisher Navoiyning musiqa san’atiga oid to‘liq qarashlari “Xamsa”ning to‘rtinchi dostoni “Sabbai Sayyor” asarida aks etgan.

Alisher Navoiy “Sabbai Sayyor” dostonida Allohga murojaat qilib deydi:

Tund sendin sipehr Bahromi,

Chang zang Zuhraning Diloromi.[3]

Ma’nosi: “Bahrom koinot ramzi, chang cholg‘usi sozandasi Zuhroning ramzi Diloromdir”. Bahrom va Dilorom ushbu dostonning bosh qahramonlari bo‘lib, biri shox va ikkinchisi malika. Sharq astronomiyasida 9 osmonning har biriga nom qo‘yilgan bo‘lib, 3 falak Zuhrodir va u chang cholg‘u sozandalarining homiysi hisoblanadi. [4]

“Chang” so‘zi sanskritcha (qadimgi hind tili) bo‘lib, ma’nosi “taralish”, “sado”, “tovush” demakdir. [5] U cholg‘u nomi sifatida X asrda Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida uchraydi. Bu so‘z hindlardan eronga, ulardan turkiylarga (o‘zbeklarga) o‘tgan.

Bu o‘rinda Zuhro yulduzining chang cholg‘u ijrochiligi homiysi sifatida ko‘rsatilishiga sabab Zuhro eng yorqin yulduzlardan hisoblanadi va chang sadosi ham baland hamda jarangdor ekanligi ma’lum. Navoiy deydiki, “koinotda o‘zgarishlar jarayoni bo‘lganida Zuhro chang cholg‘usini muhofaza etadi”:

Qildi chun Zuhra sori ohangni,

Zuhra yoshurdi vahmidin changni.[6]

E’tibor berilsa, Zuhra ayol jinsiga mansub, shu ma’noda Navoiy davrida ham chang cholg‘u ijrochilarining nisbatan ko‘pchiligi ayollar bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi. Umuman, Sharqda sozandalar ayollar ijrochiligiga ustuvor ahamiyat beriladi. Misol uchun, mashhur islom musiqashunosi Is’hoq Mavsiliyning quyidagi so‘zlari mashhur: “Kuyni erkaklar yaratadi, ayollar esa bezaydi”[7]. Ya’ni, ayollar nozik didni, his-tuyg‘uni (emotsiyani) va sabrli bo‘lganligi uchun cholg‘u

[3] Alisher Navoiy. “Xamsa”. –T.: “Fan”. 1960. 459-bet.
[4] Коры-Ниязи Т.А. Узбек и его астрономическая школа. – Т.: УзГосиздат. 1959. – с. 103.
[5] Древнетюрский словарь. – М.: «Науки». 1960. – с. 303
[6] Navoiy. “Xamsa”. 467-bet.
[7] Матякубов О. Об основах музыки Востока. – Т.: «Фан». 1986. – с

ijrochiligida mahoratli bo‘ladi. Shu sababli mahoratli ayol sozandalar changni ijro qilganida olamu odam kuyib ketadi” deydi Navoiy:

Zuhra, bir lahza cholma soz ohir,
Chekmagil lahni dilnavoz ohir.[8]

Bu o‘rinda “lah” – kuyning avj pardasi.[9] Navoiy musiqani shu qadar chuqur idrok etadiki, uning fikricha, “agar mahoratli sozanda ijro qilgan kuy dilnavoz (dilning navosi) bo‘lsa, olamu odam kuyib ketadi”. Bu o‘rinda mutafakkir bejiz “Navo” so‘zini taxallus sifatida takrorlangani ma’lum bo‘ladi. Bundan tashqari, Navoiyning mana shu fikridan ta’sirlangan Abdulla Oripov (1941-2016) “Munojat” she’rida “Kuyi shunday bo‘lsa agar, Odamzot g‘amiga qanday chidar” deb yozgandi.

Navoiy shoh Bahrom saroyidagi “bazmni” tasvirlab, chang cholg‘u ijrochilarining mahoratini shunday ko‘rsatadi:

Tushgan ahli navo cholib derga,
Zuhrani ko‘rdin indurib yerga.

Ikki yo‘din mug‘anniy ikki hayl,
Jong‘a tandin chiqorg‘a solib mayl.

O‘ngda turinavoz urub doston,
Qo‘zg‘onib har navoda Turkiston.

So‘l sori forsi surudu nig‘am,
Fitkai Fors, bar Iroqu Ajam

Kavkabi Jom aksi kam’afitan,
Tob aro o‘ynaki suhayli Yaman. [10]

---

[8] Navoiy. “Xamsa”. 478-bet
[9] “Avesto”dan kelgan kuy nomlari izohi uchun qarang: Ibrohimov O. Asrlarni bo`yligan san’at. “O`zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 2016 yil 6 yanvar soni.
[10] Navoiy. “Xamsa”. 480-bet

Ma’nosi: “Bazmda sozandalar soz chalib go‘yoki Zuhrani koinotdan Yerga olib tushishgan holda o‘tirishibdi; ikki tomonda (bir-biriga ro‘baro‘ holatda) mug‘anniylar (musiqa ijrochilari) guruhi joylashgan; o‘ngdagi san’atkorlar butun Turkistonni qo‘zg‘otadigan kuy va doston kuylashadi; chap yondagi san’atkorlar forsiy tilda Fors (Eron), Iroq va arab bo‘lmagan xalqlarining qo‘shig‘i va kuyini ijro etishmoqda; bu huddi Suhay boshchiligida yulduzlar Yamanga (ya’ni Yerning durlar makoniga) tushganga o‘xshaydi”. Demak, Husayn Boyqaro (1436-1505) saroyidagi san’atkorlar guruhi huddi shunday joylashishgan, faqat Navoiy buni shoh Bahrom saroyiga ko‘chirib tasvirlaydi. Bundan tashqari, Navoiy urg‘u berayotgan uch fikrga e’tibor bering: 1) Ansambl rahbari changchi bo‘lgan (“Zuhra yerga tushgan”); 2) Sulton Husayn Boyqaro saroyidagi yig‘inda turli tillardagi kuy va qo‘shiqlar ijro etilgan; 3) Navoiy davrida ham san’atkorlarni yulduz (“kavkab”) deb atashgan.

Navoiy do‘sti azizi Husayn Boyqaro saroyidagi ijodiy yig‘inni shoh Bahrom saroyiga ko‘chirib tasvirlaydi:

Shahg‘akim ishrati mudom edi,
Soz birla surud kam erdi.

Ko‘p edi xizmatida rud ahli,
Bazmida jonfido surud ahli.

Har taraf hamma bo‘lsa erdi bu hayl,
Hozir etmakka aylar erdi mayl.

Shavqida ixtiyori yo‘q erdi,
Ko‘rmay ohi qarori yo‘q erdi…

Lahni change rubob edi har yon,
Sayu etidin kabob edi bir yon.[11]

Ma’nosi: “Shoh (Boyqaro va Bahrom) huzurida ko‘ngilochar bazm izchil davom etar va unda kuy-qo‘shiq avj olardi; xizmatda kuy bilan kuyduruvchi sozandalar va qo‘shiq bilan jon oluvchi xonandalar; ular kuylashganida har tarafdan

[11] Navoiy. “Xamsa”. 486-bet

odamlar ular tomon yugurar edi; Shoh bazmda shavqqa berilib, yorini qumsaydi… Bir tomonda chang va rubob kuylari avj oladi, ikkinchi tomonda ov natijasi bo‘lgan kaboblar muntazir turibdi”.

Zero, Navoiy chang cholg‘usi sadolarini xush ko‘rgan, keyinchalik ustoz Darvesh Ali (XVII asr) aytganidek, u ham changni “sozlar kelinchagi” deb bilgan. Aks holda, chang ijrochilariga nisbatan quyidagi talablarni qo‘ymas edi:

Ko‘rgan o‘lmakki qilmasa ohang,
Voy ul damki, olsa ilgiga chang.

Change chun jonfizo sado cheksa,
O‘zi ul savt ila navo cheksa.

Ko‘ksi yohud eshitsa kim oni,
Qolmag‘ay bir, gar o‘lsa ming joni.

Men kibi kimsa cheksa yuz ming til,
Bo‘lmag‘ay vasfi sharhi yuz ming yil.[12]

Ma’nosi:

Changni qo‘liga olgan zamon,
O‘limni unutsa shu on.
Changidan jon oluvchi sado chiqsa,
O‘zi ham tovushu navoga boqsa.
Kimki ko‘ksi yoki unutsa uni,
Bersa unga, dod ming jonni.
Men kabilar uni rosa vasf qilsa,
Yuz ming yil ham bu vasf tugamasa)

Navoiy o‘zga cholg‘u ijrochilari va musiqa san’atining boshqa vakillariga bunday talablarni qo‘ymaydi. Bu masalaga chang cholg‘u mutaxassislari jiddiy e’tibor berishlari maqsadga muvofiq.

[12] Navoiy. “Xamsa”. 488-bet

Umuman, Navoiy chang cholg‘u ijrochiligi masalalarini juda chuqur idrok etadi. Bu masalada uning ideal fikri quyidagicha:

Menki bir nag‘ma soz qilsam chang,
Ruh chiq moq sari qilur ohang.[13]

Ma’nosi: “Men changda shunday bir kuy cholayki, tanadan ruh chiqib o‘z asliga ketmoqni istab qolsin!”

Zero, Navoiy musiqa san’atida mahoratni ilk rejaga qo‘yadi. Uning bu boradagi qarashlari chang cholg‘u ijrochiligi masalasiga doir talqini o‘z ifodasini topgan. Uning musiqa san’ati mutaxassislari tilidan aytgan mana bu so‘zlari har bir iste’dodli san’atkor qalbida aks-sado bo‘lishi kerak:

Avli unkim navo keturgaymen,
Tangri shukrin bajo keturgaymen. [14]

Shu tariqa Navoiy “musiqa yaratish va ijro qilishni yaratgani uchun Allohga shukr etish” deb biladi.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Alisher Navoiy qaysi asarlarida chang cholg‘usini tilga olib o‘tgan?
2. Alisher Navoiy chang sozandasiga qanday talab qo‘yadi?
3. Navoiy shoh Bahrom saroyidagi “bazmni” qanday tasvirlaydi?
4. Alisher Navoiyning musiqa san’atiga oid to‘liq qarashlari “Xamsa”ning qaysi dostonida tasvirlangan?

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar.***

1. Alisher Navoiyning musiqa sohasiga oid fikrlari keltirilgan boshqa asarlarini ham o‘qish.

[13] Navoiy. “Xamsa”. 487-bet
[14] Navoiy. “Xamsa”. 485-bet

2. Chang cholg‘usi haqida Navoiy zamondoshlarining fikrlari keltirilgan manbalarni izlash va tahlil qilish.
3. Chang cholg‘usi haqida Navoiy fikrlari keltirilgan manbalarni izlash va tahlil qilish.
4. Navoiyshunos olimlarning bu boradagi fikrlarini o‘rganish.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. A. Odilov, A. Petrosyans. Chang darsligi . –T., 1961
2. Ф.Кароматов. Узбекская инструментальная музыка. Т., 1972
3. А. Одилов. Пьесы для чанга. –Т., 1974.
4. Navoiy A. Xamsa. –T., 1960.


## 3.Mavlono Mirak Buxoriy-Changiy

Musiqiy cholg‘ular insoniyat ma’naviyatini janglarda tarannum etuvchi vosita, ya’ni xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an’anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg‘ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan e’tibor katta bo‘lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Zamonaviy jarayonda o‘tmish an’analariga yangicha qarash, ilg‘or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim, ya’ni insonlarni ruhiy hamda ma’naviytarbiyasiga asos bo‘la oladigan omil sifatida qaraladi. O‘quv-ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida bunga e’tibor berilishining sababi ham shunda ekanligi shubhasizdir. Qolaversa, ta’limda alohida-alohida standartlar tarzida ishlangan dasturlar asosida faoliyat olib borish yo‘lga qo‘yilmoqda. Natijada, o‘qitish mezonida

qo‘llanilayotgan adabiyotlar va mavjud barcha nashrlar zamonaviy talab darajasidagi yangi qarashlar bilan boyitish, shaklan hamda mazmunan yaxlit bir o‘quv adabiyoti ko‘rinishiga keltirilib takominlashtirishni taqozo etmoqda.

Ma’lumki, musiqiy cholg‘ular va ular bilan bog‘liq namunalar xalq musiqa ijodiyotining ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy qismini tashkil etadi. Hozirgi davrgacha yuzaga kelib, amaliyotda o‘z o‘rnini egallagan va ijrochilik amaliyotini yuqori saviyaga erishib borayotganligi, umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega ekanligi ham bundan dalolat beradi. O‘zbek xalq cholg‘ularining har biri texnik jihatdan va tarannum darajasidan ilg‘od cholg‘ular darajasiga kiritish mumkin. Aksariyat namunalari boy ijroviy imkoniyatlari hamda mukammal darajada shakllanganligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek chang cholg‘u ijrochiligi tarixida yorqin iste’dod sohiblari ko‘p bo‘lgan. O‘rta asrlarda Noqus Changiy, Mavlono Mirak Changiy Buxoriy, Xoja Bobo Changiy, Hofiz Changiy, Darvishali Changiy va boshqa chang ijrochilari tanilgan. Bunday mumtoz san’atkorlar faoliyatidan xabardor bo‘lish ijrochilik mahoratining yuksalib borishiga olib keladi. Ana shunday yetuk chang cholg‘usi sozandalaridan biri Mavlono Mirak Changiy – Buxoriydir (XVI asr).

Darvesh Ali Changiyning “Risolai musiqiy” asarida bayon etishicha, Mavlono Mirak “o‘z davrining mashhur san’atkori va chang cholg‘usining mahoratli ijrochisi” bo‘lgan.

U Buxoro madrasasida tahsil ko‘radi va musiqa san’atiga bo‘lgan cheksiz ishtiyoq uni oilasi bilan Xorazmga ko‘chib kelishiga sabab bo‘ladi. Demak, XVI asrda ham chang cholg‘u ijrochiligining vatanlaridan biri bo‘lgan Xorazm mazkur cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha nufuzli o‘rin tutgan.

Mavlono Mirak Xorazmning Xiva shahrida chang cholg‘u ijrochilik san’atida tez orada obro‘ qozonadi va hatto, uning mahorati hamda islom dini asoslari bo‘yicha bilimini o‘sha davrning yirik olimi Mullo Kalon yuksak baholaydi. Bu faoliyatdan ma’lum bo‘ladiki, har bir davr chang cholg‘u ijrochilari o‘z zamonasining bilimlari bo‘yicha yetuk shaxslar ham bo‘lishgan.

Shu orada bir hodisa ro‘y beradi: Eronning Zabzavor shahridan Mutahhar Halliy degan shaxs xonning hududiga kiruvchi Marv shahriga kelib, islomning shia mazhabini targ‘ibot qila boshlaydi. Ko‘pchilik talabalar uning bir yoqlama ta’limotiga moyillik bildiradi. Tez orada Mutahhar Halliy poytaxt Xiva shahriga keladi. Bundan tashvishlangan Xorazm ulamolari islom asoslari masalalar bo‘yicha bahsga kirishishadi, lekin ular yutqiza boshlashadi. Shunda Mavlono Mirak Changiy olimlarga qarab deydi: “Bezovta bo‘lmang, Alloh xohlasa Mutahhar Halliyni bahsda yengamiz”.

Mutahhar Halliy bilan bahslashish uchun juda katta yig‘ilish tashkil qilindi. Mavlono Mirak Changiy u bilan islom dini asoslari bo‘yicha uzoq bahsga kirishdi va ohir-oqibatda g‘olib bo‘ldi. E’tibor qilinsa, Mirak Changiy bu o‘rinda nafaqat yetuk san’atkorligini, balki olimligini ham namoyon qilgan.

Darvesh Alining ma’lumot berishicha, Mavlono Mirak o‘sha davrda mashhur bo‘lgan 26 torni va 7 pardani changda mahorat bilan ijro qilib, Ustoz darajasiga yetgan. U chang cholg‘usining 1-pardasida Rost maqomini, 2-pardasida Navo maqomini, 3-pardasida Hijoz maqomini, 4-pardasida Zangula maqomini, 5-pardasida Husayniy maqomini, 6-pardasida Iroq maqomini va nihoyat, 7-pardasida Ko‘chil maqomini ijro etgan. Demak, bugungi maqom cholg‘u ijrochiligida bu kabi tajribalarni sinab ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bunda tovushlar sadolanishining sifati va tusi hisobga olinishi kerak.

Zero, Mavlono Mirakning to‘liq ismi Muhammadbek ibn Muborakshohi Buxoriy bo‘lib, u Abu Bakr ibn Umar Qizviniyning (vafoti 1276 yil) “Himmat al-ayon” asariga “Sharhi Hikmat al-ayon” (Borliq asoslariga sharh) asarini ham yozgan yetuk olim va san’atkordir.

Shunday qilib, Mavlono Mirak Changiyning faoliyatini kuzatish chang cholg‘u ijrochilari o‘z davrining mutafakkirlari ham bo‘lishgan, - degan xulosaga olib keladi.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. O‘rta asrlarda tanilgan chang ijrochilaridan kimlarni bilasiz?
2. Mavlono Mirak Changiy – Buxoriy nechanchi asrda ijod etgan?
3. . Mavlono Mirak Changiy – Buxoriy qayerlarda tahsil oladi va ijod qiladi?
4. . Mavlono Mirak Changiy – Buxoriyning ijro uslubi haqida Darvesh Alining risolasida qanday ma’lumotlar keltirilgan?

Mavlono Mirak Changiy qanday asarlarni yozib qoldirgan?

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar.***

1. Chang cholg‘usining mohir ijrochilari haqida ko‘proq ma’lumot toppish.
2. O‘rta asrlarda yashab ijod etgan musiqashunoslarning ilmiy risolalari bilan yaqinroq tanishish.
3. Ushbu risolalarda aynan chang sozi haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish.
4. Mavlono Mirak Changiy – Buxoriy haqida yanada ko‘proq ma’lumotlar to‘plash.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. –T.: O‘qituvchi, 1998
2. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari–T., 2004
3. Методика обучения и исполнительства на узбекских народных музыкальных инструментах. Сборник статей. –Т., 1987
4. Rumiy J. Masnaviy ma’naviy. 1-kitob. –T., 2004


## 4.Darvesh Ali Changiy

O‘zbek mumtoz musiqa san’atining eng mashhur tadqiqotchilaridan biri Darvesh Ali Changiydir (XVII asr). O‘zbek ilmiy musiqashunosligida unga murojaat qilmagan muallif kam uchraydi, bu san’atkor – mutafakkirning yagona

asari “Risolai musiqiy” risolasi qomusiy harakterga ega[15] va u O‘zbekistonda I.Semyonov, D.Rashidova, B.Ashurov tomonidan maxsus o‘rganilgan[16]. Shunday bo‘lsa-da, Darvesh Ali Changiyning cholg‘u ijrochiligi masalalariga doir qarashlari tizimli tahlil qilingan emas. Bu o‘rinda e’tiboringizni ana shu masalaga tortamiz.

Darvesh Ali ibn Mirzo Ali ibn Xoja Mahmud musiqa ilmini otasi Mirzo Alidan o‘rgangan, deyarli o‘z davridagi barcha cholg‘ularni ijro eta olishi to‘g‘risida asarining muqaddima qismida aytib o‘tgan. Lekin u chang cholg‘usi ijrochiligi bo‘yicha mashhurlikka erishadi, Buxoro xoni Imomqulixon Ashtarxoniy (hukmronligi 1611-1642 yillar) saroyiga mehtar (saroy ansambli boshlig‘i) lavozimiga ishga o‘tgach “Changiyi hoqoniy” (Hoqon changchisi) unvonini olgan va asarini shu xonga bag‘ishlab yozgan.

Darvesh Ali Changiy ustozi Kavkabiyga o‘xshab turli ilm sohalarini o‘zlashtirgan, sozanda, hofiz va olim sifatida shuhrat qozongan. O‘z mavqeiga ko‘ra Darvesh Alini Sharqning atoqli musiqashunoslari silsilasining so‘nggi namoyandalaridan biri deyish mumkin. Darvesh Ali umrining oxirgi yillari nochor va mushkul ahvolda o‘tdi. Olimga nisbatan bunday munosabat nafis san’atlarga bo‘lgan e’tiborning pasayib ketganidan darak beradi

Darvesh Ali Changiy saroyda xizmat qilib yurgan kezlarida xon unga o‘sha vaqtda ijro etiladigan musiqiy asarlar va cholg‘ular, san’atkorlar va umuman musiqaga aloqador bo‘lgan barcha omillar haqida bir risola yozishni buyuradi hamda homiylik qiladi. Bu risolani yozish uchun Darvesh Ali qalandar sifatida kiyinib olib dunyo bo‘ylab sayohatga chiqadi. Yo‘l yo‘lakay sozandalar, xonandalar bilan tanishadi va ular ijro etayotgan asarlar hamda musiqiy cholg‘ularni o‘rganadi. 10 yil davomida Xindiston, Xitoy, Shinjon, Rum, Arab mamlakatlari, Kavkaz orti davlatlarida bo‘lib qaytadi va u yerlarning milliy musiqalarini ham amaliy, ham nazariy jihatdan o‘rganib qaytadi. Shundan keyin, saroy kutubxonasida

---

[15] Дарвеш Али Чанги. Рисола мусики. Перевод Д. Рашидовой. – Т.: Институт Испусстоведенее. Фонд Д. Рашидовой. 1983

[16] Семенов И. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвеш-Али- (XVII век). – Т., 1946.,
Рашидова Д. Севедения о макомах музыкальной жизни в трактате Дервеша Али Чанги. // Профессиональная музыка устной традиции народов бленного, средного Востока и современность. – Т., 1981.,
Ashurov B. Darvesh Ali Changiyning «Risolai musiqiy» asariga yana bir nigoh. // Barkamol avlodning shakllanishida san’atning ahamiyati. Yillik to’plam. – T., 2010.

saqlanayotgan musiqaga oid barcha manbalarni o‘qib chiqadi va o‘z risolasini yozishga kirishadi. Bu risolaning e’tiborga molik tomoni shundaki, musiqaga oid ungacha aytib o‘tilgan ma’lumotlar Darvesh Alining risolasida takrorlanmaydi.

Darvesh Alining xabar berishicha, qutb Hojesh Ja’far qonun cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha XVII asrning eng mashhur (virtuoz) ijrochisidir va uning o‘nlab shogirdlari bor. Zamonasining durdonasi Ali Do‘st Nay ijro qilganida qalblar tilka-pora bo‘lgan. U Payg‘ambar alayhissalom avlodidan bo‘lgan Amir Mastiy nomiga naqsh (kuy) bog‘lagan. Mavlono Husayn Kavilbiy musiqashunos olim bo‘lishidan tashqari doira cholg‘usining mohir ijrochisi edi va mazkur cholg‘u asari bo‘lgan 17 usul yaratgan. Shuningdek, xon Imomqulixon ud cholg‘usi unlarini g‘oyatda hush ko‘rgan va yana xon Darvesh Ali chang  ijro qilganida sayqallar (nolalar) qilgan. Mavlono Zaytum g‘ijjak cholg‘usi ijrochilarining piri (ustozi) edi.

Shu tariqa Darvesh Ali o‘ndan ortiq cholg‘ularning virtuoz ijrochilari va ustozlarini namuna  sifatida ko‘rsatib o‘tadi. Bundan uning maqsadi ikkita edi: birinchidan, Ashtarxoniylar davrida (XVI-XVII asrlar) yurtimizda musiqa san’ati Sharq mamlakatlari ichida eng yuqori cho‘qqida bo‘lganligini ko‘rsatish; [17] ikkinchidan, san’atkor bo‘lish uchun iste’dodning o‘zi yetmasligini, aksincha, mahorat hosil qilish, kasbga sadoqatli bo‘lish va ustozlar xizmatiga bosh egishni ta’kidlash edi. Bu masalalar bugun ham ahamiyatini yo‘qotgan emas. Umuman, Darvesh Alining “Risolai musiqiy” asarida quyidagi masalalar yoritib o‘tilganini eslatib o‘tish joiz: 1) Islomda musiqaning joizligi to‘g‘risida Payg‘ambar (s.a.v) hadislari; 2) musiqaning mazmuni, ohang va iyqo (ritm) nazariyasi to‘g‘risida qarashlar; 3) O‘n ikki maqom, sho‘ba va ovozlari tasnifi; 4) qirq bir usul tavsifi; 5) cholg‘u ijrochiligi asoslari, musiqa tinglash san’ati va kuylash sirlari tahlili; 6) tanbur, chang,[18]  nay, ud, qo‘buz, arg‘anun, semtura, setor cholg‘ulari tavsifi va xonandalar to‘g‘risida; 7) musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan podshohlar to‘g‘risida; 8) musiqa san’ati omillari to‘g‘risida; 9) musiqiy asarlar yozgan shoirlar va

---

[17] Xoji Samandar Termiziy. Dastur ul-muluk. – T., 2002

[18] Darvesh Ali g`oyatda madaniyatli san’atkor – mutafakkir bo`lgan, u Changchi bo`lgani holda an’anaga binoan Tavsifni Tanburdan boshlaydi va o`zga cholg`ular to`g`risida mehr bilan so`z yuritadi. Musiqa san’atkori mana shunday bo`lishi kerak.

iste’dodli shaxslar haqida; 10) Hirotda yashagan, musiqa bo‘yicha mashhur bo‘lgan Payg‘ambar (s.a.v) avlodlari to‘g‘risida;[19] 11) Imomqulixon davridagi mashhur xonandalar va ularning xon tomonidan rag‘batlantirilishi to‘g‘risida; 12) XVII asrda (muallif davridagi) mashhur musiqa san’atkorlari haqida.

Kezi kelganda ikki fikrni ta’kidlash lozim: birinchisi, Darvesh Ali har bir bobda kezi bilan ijrochilik san’ati to‘g‘risida fikr bildirib o‘tadi; ikkinchisi, mutafakkirning bu asari hanuzgacha fundamental tarzda tahlil qilinmadi.

Darvesh Ali chang cholg‘usi to‘g‘risida to‘xtalar ekan deydi: Horut va Morut farishtalar bir kuni odam qiyofasiga kirishib Yerga tushishdi va Bobil shahrida chang cholg‘u ijrochisi Zuhraga duch kelishdi. Zuhraning husni va san’atiga oshufta bo‘lib, unga muhabbat qo‘yishdi, zuhraga deyishdiki: “Sen ikkimizni ham sevishingni so‘raymiz”. Zuhra dedi: “Ikki shartim bor: 1) mening dinim bo‘lgan butparastlikni qabul qilasiz; 2) qip-qizil may ichasiz”. Farishtalar Horut va Morut bu shartlarni bajarishdi, lekin Zuhra farishtalar muhabbatini rad etdi.[20] Zuhra yana bir shart qo‘yadi: “G‘ayb (ilohiy) sirni menga o‘rgating”. Farishtalar buni rad etishdi.[21] “Shunda Alloh taolo, - deb yozadi Darvesh Ali, - bu ikki farishtaning qiyofasi va darajasini Zuhraga berib, uni falakning (koinotning) uchinchi osmoniga ko‘tardi”. Bu bilan Darvesh Ali quyidagilarga ishora qiladi: birinchidan, Zuhra timsolida inson farishta darajasiga ko‘tarildi va bunga sabab musiqadir (chang ijrochiligidir); ikkinchidan, Zuhra cholg‘u ijrochiligidagi mahorati bilan nafaqat insonlarni, balki butun Koinotni lol qoldirgan. Darvesh Ali bu bilan chang cholg‘usi sadolarining yuqoriligi va davomiyligiga ishora qiladi.

Darvesh Ali o‘z davridagi |chang cholg‘usi to‘g‘risida (o‘z davridagi) quyidagi ma’lumotlarni beradi: cholg‘u 26 tor va 7 pardaga ega. Mazkur ma’lumot Chang cholg‘u ijrochiligi uchun muhim ahamiyatga ega.

---

[19] Ularni Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy to`plagan edi.

[20] Darvesh Ali bu bilan muhabbatdan ko`ra, kasbga sadoqatni ustuvor qo`yadi

[21] Shu sababli Zuhra farishtalar muhabbatidan voz kechadi, bu o`rinda Darvesh Ali mutaassib din peshvolaridan shu tariqa o`zini himoya qiladi. Vaholanki, Alisher Navoiy (XV asr) “Sabba’I Sayyor” dostonida (tariqatimizda yuqorida berildi) BAhrom Zuhraning barcha shartlariga rozilik bildirdi.

Shunday qilib Darvesh Ali Changiy XVII asr cholg‘u ijrochiligining eng muhim tadqiqotchisidir. Uning Yurtimizda islom dini kelgach chang cholg‘u ijrochilari musiqa san’atini saqlab qolishga doir kuzatishlari diqqatni tortadi.

Ayni paytda, muallif bu o‘rinda chang cholg‘u ijrochiligiga oid quyidagi qadimiy ma’lumotlarni beradi:

A) Sosoniylar davlatining Nushirvon shohligi davrida (530-579 yillar) chang cholg‘u ijrochiligi gullab-yashnagan. Demak, VI asrda chang cholg‘u ijrochiligi nafaqat oddiy xalq orasida, balki, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan saroydagi tadbirlarda ham bu ijrochilik san’atidan oqilona foydalanilgan.

B) Ikkinchi xalifa hazrati Umar davrida (634-644 yillar) yurtimiz Movarounnahrda mutaassiblar musiqa islomga zid degan tushuncha paydo bo‘ladi. Mazkur voqea munosabati bilan Piri Changiy (“Changchilar ustozi”) ismli shaxs Madinaga – hazrati Umar huzuriga yo‘l oladi va unga chang ijro qilib beradi. Chang cholg‘u ijrosidagi musiqadan ta’sirlangan hazrati Umar “musiqa – islomga zid emas” degan fikrni bildiradi. Piri Changiy bu hurmatni olib Movarounnahrga qaytadi va yurtimizda VII asrdan boshlab islom davrining boshlanishidayoq musiqa san’ati qaytadan yuksakka boshlaydi.

Ta’kidlash lozimki, Darvesh Ali keltirgan bu voqeani Jaloliddin Rumiy (1207-1270) “Hikoyati Piri Changiy” nomi bilan “Masnaviyi ma’naviy” asarining birinchi jildida yuksak darajada tasvirlagan[22].

Demak, XIII asrda ham bu ma’lumot mashhur bo‘lgan.

C) Darvesh Ali ma’lumotni yanada qadimiyroqdan beradi. Uning xabariga ko‘ra, Horut va Morut farishtalari uchinchi falakda chang cholg‘usini yasashgan va uni Bobil minorasi quruvchilari huzurida ijro etishgan.[23]

Mazkur voqelik aftidan Biblianing Tavrot qismidan olingan, uning izlari hozirgi Iroq va Misr davlatlari hududida bo‘lgan Bobil (Vavilon) minorasi qurilishi juda qadimgi davrlarda amalga oshirilgani Bibliada hikoya qilingan[24].

[22] Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. 1-jild. – T.: “Movarounnahr”. 2003. 110-131
[23] Семенов И. Среднейазиатикий трактат по музыке Дарвеш-Али-Чанги-Бухори (XVII век). – Т., 1946. –с. 17
[24] Tavrot. Injil. O`zbekcha nashri. – Стокгольм, 1992. 340-345 betlar

Bu mifologik ma’lumot quyidagi xulosalarga olib keladi: birinchidan, demak chang juda qadimiy cholg‘u; ikkinchidan, chang cholg‘usi boshidayoq baland ovozga ega bo‘lgan, chunki Bobil minorasi qurilishida ming-minglab kishilar ishtirok etganligi tarixdan ma’lum[25].

D) Shu tariqa Darvesh Ali chang cholg‘u ijrochiligi Movarounnahr (yurtimiz), Eron, Bobil (hozirgi Misr va Iroq hududi) va Xitoyda chang cholg‘u ijrochiligi yuksak darajada tarqalganligini ta’kidlaydi[26]. Albatta, bunda chang cholg‘usining turli shakllarda bo‘lganligini ta’kdlash lozim.

Zero, Darvesh Ali mutafakkir Alisher Navoiydan ikki asr keyin XVII asrda yashagan va u ko‘p ma’lumotlarga ega.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Darvesh Ali Changiyning o‘zbek musiqasi rivojiga qo‘shgan hissasi haqida
2. Darvesh Ali Changiyning musiqiy risolasi haqida gapiring.
3. Darvesh Ali Changiyning chang cholg‘usi borasidagi fikrlari qanday bo‘lgan?
4. Chang cholg‘usining shifobaxsh xususiyatlari haqida Darvesh Ali qanday ma’lumotlar keltirgan?

Jaloliddin Rumiy “Hikoyati Piri Changiy” asarida qanday ma’lumotlarni keltib o‘tadi?

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar.***

1. Darvesh Ali Changiyning faoliyati haqida ma’lumotlar keltirilgan ilmiy manbalarni izlash va o‘rganish
2. Darvesh Ali Changiyning o‘zbek musiqasi rivoji borasidagi faoliyatini tahlil qilish.
3. Darvesh Ali Changiyning yozgan asarlarini o‘qib, tahlil qilish.
4. Darvesh Ali Changiy bilan zamondosh bo‘lgan olimlarning ham faoliyatini o‘rganish.

---

[25] Тураев Б. История древного Востоки. – М.: «Наука». 1962. – с. 220-234

[26] Семенов И. Среднейазиатикий трактат по музыке Дарвеш-Али-Чанги-Бухори (XVII век). – Т., 1946. –с. 17

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. A.Odilov. O‘zbek xalq cholg‘u asboblarida ijrochilik tarixi. T., 1995
2. G‘.Quchqorov. Milliy musiqa cholg‘ularni o‘rganish. T., 2002
3. M.Abdukarimov. Cholg‘ushunoslik. T., 2006
4. M.Toshmatov. Cholg‘ushunoslik. T., 2004


## 5. Chang cholg‘usining takomillashishi

Musiqa cholg‘ularining ijrochiligi haqida qadimiy musiqiy risolalarda bebaho ma'lumotlar berilgan. Ularning yaratilishi, nomlanishi shu bilan birga ba'zi bir ularning ijroehilari, mutrib-sozandalari, ijro etilgan asarlariga oid ma'lumotlar ko‘proq "Ud" va "Tanbur" hamda "Nay" musiqa cholg‘ulari haqida bo‘lib, keyinchalik boshqa musiqa cholg‘ulari haqida ham fikr yuritilgan. Musiqa cholg‘ulari uchun dastlabki bastalangan musiqiy asarlarni cholg‘u va ashula yo‘li ijrolari quyidagicha nomlangan-advor, alhon, navo, parda, davr, ohang, kuy, qonun, savt, bong, lahn, amal, kor, asovot, aqsom, sado, rang, sano, tarkib, davr, fig‘on, g‘azzol, daston, surud, davl, jam, jins, iqo, zoita, iqoma, marg‘ul, maqom, mizon, muloimot, ovo, naqsh, parda, naqra, nag‘ma, nag‘am, nag‘omot, go‘sha va boshqalar.

Ma'lumki barcha milliy musiqa cho‘lg‘ularining ijro yo‘llari og‘zaki an'ana "Ustod (ustoz) va Shogird" tizimi asosida olib borilgan. Bu turdagi ijrochilik uslubi necha asrlar davomidu shakillanib, ijrochilikda qo‘llanilib, xalq orasida mavjud musiqiy asarlarning barcha turdagi nusxalari, namunalari shu asnoda ijro etib kelingan. Hatto Sharq Olimlari Forobiy. Urmaviy keyinchalik Komil Xorazmiylar tomonidan “Ud” va “Tanbur” musiqa cholg‘ularining ijrosiga mos nota tizimlarini yaratilishiga harakat qilingan. Lekin bu ijro uslublari keyingi asrlarda yashagan musiqashunos olimlar tomonidan takomillashtirilmagan. Ushbu yaratilgan nota tizimlari keyinchalik Ovrupo nota tizimini yaratilishi va rivojiga asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Og‘izaki an’ana uslubiga xos musiqa ijrochiligidagi ijro yo‘llari xususan milliy musiqa cholg‘ulari ijrolari jarayonida musiqa sadolarini yanada jozibali, mungli, yoqimli, ta'sirchan, hayratomuz va hokazo sadolanishi uchun turli xil milliy ijro bezaklari ijrochilikda qo‘llanilib ular turlicha nomlangan va hozirgi kungacha bu musiqiy bezaklar xalq mutqib-sozandalari tomonidan ijrochilikda qo‘llanilib kelinmoqda.

Ular: nola, qochirim, kashish, zarb, zarbi oro, zarbi parron, teskari zarb, qo‘sh noxun, pirrang, yakka zarb, to‘lqinlanish, rez, bidratma, nolish, molish, zaxma orqali pastga va yuqoriga harakat va hokazo nomlar bilan atalib, bu milliy ijro bezaklari musiqiy ijro asarlarini xarakteriga va mutrib-sozandalarning ijrochilik mahoratlariga bog‘liq holda ijro jarayonlarida qoilaniladi. Bu ijrolar jarayonlarida ijrochining o‘ta o‘tkir ijro mahoratidan eshituvclii ya'ni shunavandular turli xil holatlarga tushish, miriqib dam olish, hayratdan kuchli ta'sirlanib yig‘lashi, baqirishi kabi hollar ham uchrab turadi.

Hozirgi kunda yevropa nota tizimi asosida notaga olingan milliy musiqa ijrochiligini cholg‘u yo‘li ijrosiga moslangan musiqiy asarlarni yuqorisiga ba'zi bir milliy ijro bezaklarini qo‘yib uning ijrolari ijrochilardan talab qilinmoqda. Lekin lining asosiy mohiyati va maqsadi aniq tushuntirib berilmagan. Notaga olingan asarni boshlanishdan to oxirigacha nuia yuqorisitv, milliy bezaklar belgilarini qo‘yib chiqilishi maqsadga muvofiq emas. Chunki musiqa ilmi va ijrochiligini o‘rganish uch pag‘onaga ya’ni Boshlang‘ich, O‘rta va Oliy toifalarga bo‘lingan. Ba'zan maktabgacha ham musiqa ijrochiligidan saboq olinishi mumkin. Lekin notaga olingan musiqiy asarlarda qo‘llanilgan milliy ijro zarblari yuqoridagi uch toifadan qaysi biriga mo‘ljallanganligi haqida umuman fikr yuritilmagan. Shu bois milliy musiqiy ijro bezaklari har bir notaga olingan musiqiy asarda berilishi maqsadga muvofiq emas. Ular kichik-kichik musiqiy ijrolar vositasida alohida-alohida misollar tariqasida berilishi, bu ijro bezaklari ijrochining o‘ta o‘tkir ijrochilik mahoratiga bog‘liqligini izohlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Demak hozirgi kunda ikki xil musiqa ijrochiligi mavjud. Bu og‘zaki an'ana va nota uslubi asosidagi musiqiy ijrolar. Og‘zaki an’ana ijro uslubi qadimul

ayyomdan to hozirgi kungacha davom etib kelayotgan milliy musiqa ijrochilik maktabi bo‘lib, bu uslubdagi ijrochilik yo‘llarini mukammal eng yuqori ya'ni oliy darajada o‘zlashtirish har bir mutrib-sozanda uchun dasturul amal bo‘lishi shart va zarur.

Hozirgi zamon Ovrupo uslubidagi nota ijrochiligini amaliy va nazariy jihatdan puxta o‘zlashtirilishi nafaqat mutrib-sozanda bal'ki barcha musiqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar uchun bebaho vazifa hisoblanadi. Nota tizimi ham eng mukammal ilmlardan biri hisoblanadi. Nota tizimini yuqori darajada o‘zlashtirilishi nafaqat milliy musiqa ijrochiligiga xos bilimlarni amaliy va nazariy jihatdan anglab yetish bal’ki, qardosh, xorijiy mamlakatlar musiqa ijrochiligiga xos masalalarni chuqur anglab yetishda umumjahon musiqa tili hisoblanadi.

Hozirgi kunda o‘zbek cholg‘ushunosligi masalalari kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda cholg‘u ijrochiligida yangi-yangi musiqa cholg‘ulari ham qo‘llanilmoqda. Buyuk-buyuk mutrib sozandalar yetishib chiqib milliy musiqa cholg‘ulari ijrochilik imkoniyatlarini o‘zlarining yetuk ustozona ijrolarini nafaqat O‘zbekiston bal’ki O‘rta Osiyo va ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilgan musiqiy anjumanlarda namoyish etib, shinavandalar olqishlariga sazovor bo‘lib, cholg‘ushunoslik, cholg‘u ijrochiligi rivojiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

1939 yilda xalq cholg‘u asboblari ijrochilarining butun ittifoq ko‘rigida ishtirok etgan keksa xalq sozandalaridan Abduqodir Ismoilov nay, Ahmadjon Umurzoqov qo‘shnay hamda Faxriddin Sodiqov chang musiqa cholg‘ulari ijrolari bilan ishtirok etishlari va bu tanlovda Faxriddin Sodiqov ikkinchi o‘rinni egallaganligi haqida ma’lumot berilgan[27]. Bu an’analar to hozirgi kungacha davom etib har to‘rt yoki besh yilda O‘rta va Oliy musiqa dargohlarida musiqa cholg‘ulari ijrochilari uchun alohida tanlovlar o‘tkazilib, o‘nlab yetuk mutrib-sozandalar turli xil musiqc cholg‘ularining yetuk ijrochilari sifatida e’zozlanmoqda va tanlov g‘oliblari sovrindorlari bo‘lmoqdalar.

O‘tgan asrning boshlarida eski namunadagi changning tuzilishi nozik va kuchsiz bo‘lib bir xil diametrdagi metall simlarni tortishga mo‘ljallangan. Uning

[27] K.Olimboyeva. M.Ahmedov. O'zbekiston Xalq sozandalari. Toshkent 1959 yil. 117 s

tovushqatori diatonik temperatsiyalanmagan. Bunday changda oyoq bo‘lmagan, shuning uchun u yerda o‘tirgan holatda ijro etilgan. Shu ko‘rinishdagi changlar Usta Usmon Zuffarov (1934 yil) hamda usta Zauniddin  Ayxaev (1935 yil) tomonidan yasashgan.

O‘sha vaqtda changlar 14 tovushqatordan iborat bo‘lgan:

Pastki birinchi torga bitta sim, qolgan 13tasida uchlangan simlar taqilgan.

Jami simlarning yig‘indisi 40taga yetgan edi. Changning simlari xarraklar vositasida 2 guruhga bo‘linar edi.

Ulardan 1- guruhi o‘ng tomon xarraklarga suyangan bo‘ladi va 1 dan tovush beradi. 2 – guruhi esa  2tadan tovush beradi. Eski xalq changining diapazoni katta oktava lya-dan 2 oktava re-gacha bo‘lgan.



Chang cholg‘usining qadimiy ko‘rinishi

1938 yil S.Didenko, A.Kevxayants, A.Petrosyans va V.Romanchenko ustalar Xamza nomidagi Toshkent Davlat bilim yurti ustaxonasida chang cholgusini to‘liq xromatik tovushqatori “do” birinchi oktavadan to “re” diez 3 oktavagacha takomillashtirilgan. Shu tariqa birinchi xromatik chang paydo bo‘ladi.

Tuzuvchi A.Petrosyans bilan mohir zamonaviy va an'naviy ustoz ijrochilar Usto Olim Komilov, Fozil Xarratov, F.Sodiqovlar birgalikda hamkorlik qilishadi.[28]

Changni mukammal takomillashtirishdagi izlanishlar davom etadi.

1943 yil Toshkent Davlat konservatoriyasi qoshidagi O'zbek musiqa cholg'ularini takomillashtirish uchun tajriba laboratoriyasi ochiladi.

Chang – trapetsiya shaklidagi korpusdan va unga o'rnatilgan yog'och dekadan iborat. Uning temir simlari dekadagi xarraklar ustidan tortilgan bo'lib, chap tomoni temir ilmoqlarga, o'ng tomoni esa temir quloqlarga birlashtirilib, sozlash uchun maxsus kalitdan foydalaniladi. Ijrochining o'tirib chalishiga qulay bo'lishi uchun changda oyoqlar o'rnatilgan . Chang cho'plari bambuk daraxtidan yasalgan va uning uchiga rezina yoki qattik paxta (filts) kiygizilgan maxsus cho'p bilan chalinadi. U yetarli, baland va uzoq cho'zilib turadigan ovoz beradi. Uning dinamik qulayliklari va texnik jihatdan imkoniyatlari juda keng.

Takomillashgan changni tovush ko'lami kengaytirilib tovushqatori "sol" kichkina oktavadan to "sol" diez 3 chi oktavagacha bo'ldi. Unga maxsus ovoz o'chiradigan moslama o'rnatildi.

Ustoz Faxriddin Sodiqov changni xromatik tuzilishiga keltirdi. Shu asosida A.I.Petrosyans changni rekonstruktsiya qildi.[29]

An'anaviy ijrochilik uslubidagi mohir usta F.Sodiqov chang tovushqatoriga o'zgartirishlar kiritgan.

1 – qator: bas kichik oktavada ikkita tori bor. Biri kichik oktava, ikkinchisi katta oktava. Ular "sol" kichik oktavadan, "fa" diez birinchi oktavagacha joylashgan.

2 – qator: "Sol" birinchi oktavadan to "mi" ikkinchi oktavagacha joylashgan.

3 – qator: "re" ikkinchi oktavadan to "do" uchinchi oktavagacha, keyingi tomoni "re"dan "mi" uchinchi oktavagacha joylashgan.

---

[28] A. Odilov, A. Petrosyans. Chang darsligi . –T., 1961
[29] A. Odilov, A. Petrosyans. Chang darsligi . –T., 1961



Nayda Abduqodir Ismoilov va changda Faxriddin Sodiqov

Shunday qilib, ustozning changida “re” va “mi” ikkinchi oktava simlari ikkitadan iborat. Bu esa an’anaviy changda ba’zi ornamental bezaklarni chalishni osonlashtiradi. Ko‘rinib turibdiki, chang cholgusini an’naviy ijrochilikka moslashda F.Sodiqovning xizmatlari juda katta bo‘ldi.

Shunday qilib, chang cholgu ijrochiligining tarixi o‘ziga hos xususiyatilari bilan diqqatni tortadi. Bu masala nazariy va amaliy jihatdan bo‘lajak mutaxassislar tomonidan o‘rganilib borishini toqozo etiladi.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Ustoz va shogirdlik an’anasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Turli cholg‘ularning takomillashishida olimlar qanday ishlar olib borganlar?
3. Chang sozining takomillashishida kimlarning hissasi katta bo‘lgan?
4. Faxriddin Sodiqovning chang cholg‘usi borasida olib borgan ishlarini gapirib bering.

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar.***

1. O‘zbek xalq cholg‘ulari haqida ma’lumotlar to‘plash.
2. Chang cholg‘usining o‘zbek musiqasidagi o‘rni haqidagi ustozlarning fikrini to‘plash.
3. Chang cholg‘usining takomillashishida hissasini qo‘shgan ijodkorlar haqida ma’lumotlar izlash va tahlil qilish.
4. Chang cholg‘usida asarlarni ijro etish.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. А.И.Петросянц. Инструментоведение. Т., 1990
2. A. Odilov, A. Petrosyans. Chang darsligi . –T., 1961
3. В.Беляев Музыкальные инструменты Узбекистана М., 1933
4. Alimbayeva К., Ahmedov M. O‘zbekiston xalq sozandalari. T., 1974


## 6.Chang cholg‘usi haqida ustozlarning fikri

Ijrochilik qobilyatlarini shakillantirish uchun avvalo talaba musiqa haqidagi barcha bilimlarni tushunib, idrok eta olishi, u haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi, musiqaning ifodaviy vositalarini, badiiy bezaklari haqidagi, notalarni ijro etish malakalarini puxta egallagan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga talabalarning ruhiy olami, uning kayfiyati ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada musiqa psixologiyasining salmog‘i katta bo‘lib, shu haqda fikr yuritamiz.

O‘rta asrlarda Sharqning buyuk mutaffakirlari musiqiy psixologiya, musiqaning qalbga, kayfiyatga va inson organizmiga ta’siri masalalarini o‘rganishgan: Forobiyning “ Musiqa haqida katta kitob”i va boshqa asarlari, Ibn Sinoning “Kitob ash- shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining musiqa haqidagi bo‘limlari, Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqa” kitobi shular qatorida turadi. Ular musiqaning inson ongi, shaxsiga, umuman, jamiyat rivojiga ulkan ta’sirini ta’kidlab o‘tishgan. Masalan, Aflotun “davlatning qudrati unda

qanday musiqa, qaysi lad va qaysi ritmda yayrayotganligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq”- degan.

Buyuk musiqachilar- Motsart, Betxoven, Shopen, List, Chaykovskiy, Rimskiy- Korsakov, Raxmaninov, Skryabin, Toskanini, Churlyonis, o‘zbek musiqa ijrochilari, bastakor va kompozitorlari – Yu.Rajabiy, M.Burxonov, M.Tojiyev va boshqalar hayotidagi misollar musiqa yaratish, ijro etish va tinglash jarayonida inson qanday psixologik xususyatlarga, hayratlanarli imkoniyatlarga egaligini yaqqol ko‘rsatadi. Shu ma’noda musiqa ilmini va musiqa ijrochilik qobilyatini talabalarga puxta o‘rgatib borish muhim hisoblanadi.

Ijrochi - bastakor, kompozitor va tinglovchini bog‘lab turuvchi xalqadir. Musiqiy ijrochilik san’atidagi farqlar musiqiy cholg‘uning o‘ziga xos hususiyatiga , yakkaxon va ommaviy ijrochilik shakli, musiqiy asarning janri va shakliy xususiyatiga, qolaversa, birincha o‘rinda ijodiy individuallik, ijrochining professional tayyorgarlik va mahorat darajasiga bog‘liq. Ijrochi uchun tinglovchi psixologiyasini tushunish va his etish, estetika talablari va auditoriya kayfiyatini to‘g‘ri anglash, muallif fikrini mohirlik bilan yetkazib berish, auditoriyani o‘z irodasiga bo‘ysundurish, tinglovchida go‘zal estetik hissiyotlarni o‘yg‘otish, ijodiy kayfiyat juda muhimdir. Aynan ijrochilik qobilyati orqali talabalarning ma’naviy-ahloqiy, insoniy fazilatlari shakillanadi, insonlarga mehr - muhabbat ma’naviy merosga va milliy qadryatlarga hurmat kabi his tuyg‘ulari shakillanib boradi. Musiqa san’atidagi asosiy faoliyatlardan biri musiqa ijrochiligidir. Zo‘r ijrochini tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg‘ularini his etamiz yoki yunonlar aytganidek, “katarsis”- ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshdan kechiramiz.

Buyuk qomusiy olim, chang cholg‘usini mohirlik bilan chalgan Abu Nasr Forobiy o‘z ijrosi bilan kishilarni quvontirish yoki qayg‘uga solish, ovutish yoki chuqur o‘y surushga majbur qilish, xursand qilish, hayratga solish va hattoki uxlatib qo‘yishning uddasidan chiqa olganligi haqidagi hikoyat va rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Bu nima? Ijrochining mahoratimi? Shaxsiyat hususiyatlarini ta’sirimi yoki musiqaning inson ongiga ta’sirimi?

Professional  musiqachi, mutaxassis musiqa psixologiyasidagi bu va boshqa jihatlarni yetarli darajada oʻzlashtirib olishi kerak. Bu musiqiy tovushlar, obrazlar, tafakkur va hissiyotlardan yoki kishi ruhini koʻtaradi, uni borliq bilan birlashtradi, gohida tasavvurlar, hayollarning tushuntirib boʻlmas imkoniyatlarini ochadi, dunyoni cheksiz kengliklariga olib ketadi, haqiqatga, idealga yaqinlashtradi, hayotimizni maʼnoli, mazmunli, maʼnaviy boy va goʻzal qiladi.

Ijrochilik azaldan musiqiy merosimizning turli janr xususyatlari asosida, oʻziga xos shaklda yuzaga kelgan. Ularni ruhiy taʼsiri, musiqaviy jonli ifodasi, tarkibiy va ijroviy juhatlaridan kelib chiqib, ijrochilik anʼanalarini ijrochilar atalmish “anʼanalar”ning davomchilari musiqa sanʼatining rivojiga oʻz taʼsirlarini koʻrsatganlar. Ijrochilikning tarixiy rivojlanish jarayoni mahalliy hududlar miqyosida, maʼlum guruhlar doirasida va mustaqil ijod  asosida vohaviy,  guruhiy va shaxsiy ijrochilik yoʻllari, uslublari shakillanishiga zamin yaratgan. Lokal hududlarga xos ijro uslublarda sheva, anʼana, janrlar kabi u yoki bu mahalliy yoʻnalishning xarakterlovchi turli jihatlari asosiy omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy ijro uslublarining yuzaga kelishida esa, koʻproq yetuk sozanda yoki xonandaning ijro talqini bilan bogʻliq imkoniyatlari bogʻliq ( ovoz, ijodiyot, badihagoʻylik, ijro) tarbiyalanib, yetishib chiqqan ijrochilik maktabi anʼanalari, mahalliy uslublari va istiqomat qilib turgan joyning turli musiqiy va ijtimoiy anʼanalari muhimdir.

Xalq musiqa ijrochilik sanʼati azaldan barcha mamlakatlarda musiqiy merosni oʻrganish asosiy mezon boʻlib xizmat qilgan. Sharq xalqlari musiqa madaniyati avloddan avlodga yozma ravishda emas, balki ogʻzaki ustoz shogird anʼanalari orqali yetib kelgan. Shu qatorida hozirgi zamon musiqasini oʻrganish dolzarb masalalardan boʻlib kelgan. Bunday ijrochilik anʼanasi zamonlar osha sayqallanib, mukammallashib boradi. Bizning milliy musiqa madaniyatimiz ham aynan ogʻzaki anʼanadagi kasbiy musiqalar behisob maʼnaviy boyligimizdir. Ajdodlarimiz qoldirgan musiqiy merosdan oqilona foydalanish, ularga zarar yetkazmasdan kelajak avlodlarga butunicha yetkazish davlatimiz siyosati darajasiga koʻtarildi. Jumladan: Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy me’rosni tiklash Davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi”[30] deb ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” nomli kitobida yoshlarni hayotga tarbiyalash, ularni ma’naviy barkamol shaxs sifatida kamol topdirish. Milliy ovoz va ohang haqida fikr yuritib, shunday degan edi: “Insonning qulog‘i yengil yelpi, tumtaroq ohanglarga o‘rganib qolsa, bora–bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma’naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir–oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarining asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo‘ladi”[31] deb yosh avlodni milliy an’analar, qadriyatlar va madaniy me’rosimiz ruhida tarbiyalash zarurligini uqdirgan.

Hozirgi kunda og‘zaki an’anadagi professional musiqasini o‘rgatish va zamonaga yarasha saboq berish, Respublikamizdagi barcha musiqa dargohlarining eng dolzarb masalalariga aylandi.

1972 yilda birinchi bo‘lib oily o‘quv yurti tizimida Toshkent Davlat Konservatoriyasining “Sharq musiqasi” bo‘limida “An’anaviy ijrochilik” kafedrasi tashkil etildi. Kafedraning maqsad va asosiy vazifasi yosh avlodga maqomning cholg‘u va ashula yo‘llarini, tarixiy nazariy jarayonlarini chuqur o‘rgatishdan iborat. Mustaqilligimiz sharofati bilan o‘rta maxsus bilim dargohlarida, ya’ni musiqa va san’at kollej hamda litseylarida ham “An’anaviy ijrochilik” bo‘limlari ochildi. Bu bo‘limlar asosan yosh sozanda va xonandalarni yetishtirib berish bilan birgalikda, milliy ijrochilik an’analaridan bohabar etish, o‘rgatish va o‘rganishda ustozona uslublarni qo‘llash maqsad qilingan.

---

[30] I.A.Karimov “Milliy istiqlol mafkurasi- xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishinchdir” Toshkent 2000, 32-bet

[31] I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent 2008-yil 134-bet

Oʻrta taʼlimni tamomlagach yosh sozandalar Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining “Anʼanaviy ijrochilik” kafedrasiga oʻqishga qabul qilinadilar. Bu yerda sozandalarni tayyorlash aniq tizim va dasturlar orqali oʻqitish yoʻlga qoʻyilgan.

Yosh sozandalar yozma, yaʼni notadan oʻqish orqali hamda ogʻzaki anʼana tarzida mumtoz musiqa merosidan saboq oladilar. Chunki milliy ijrochiligimizda melizmlarni notada ifoda etib boʻlmaydi. Notada faqatgina asosni oʻrganib, bezak, nola, qochirimlarni ustozlaridan ogʻzaki ravishda oʻrganadilar. Oʻtgan davr davomida bir qator isteʼdodli yoshlar anʼanaviy musiqa ilmidan va amaliyoti–nazariyoti zaminida tarbiyalanib, yetuk xonanda va sozandalar darajasigacha erishishga muvaffaq boʻldilar. Koʻpchilik bitiruvchilar bu sohadagi yetuk mutaxassisiga aylangan boʻlsa, bir qator mutaxassislar mamlakatimizning turli viloyat va shaharlarida yosh avlodlarga ustozlik – murabbiylik qilib kelmoqdalar.

Mumtoz asar, yaralish omili, mezoni va uzoq shakllanish tarixiga ega boʻlishi lozim. Milliy musiqamizga nazar soladigan boʻlsak, uch voha maqomlari, xalq kuylari va bastakorlar tomonidan yaratilgan va oʻz tinglovchilariga ega boʻlgan musiqalarning barchasini mumtoz deyishimiz mumkin.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Ijrochilik qobiliyatini shakllantirish uchun qanday omillar muhim sanaladi?
2. Chang cholgʻu ijrochiligi borasida Farobiyning fikrlari qanfay boʻlgan?
3. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning milliy musiqamiz borasidagi fikrlari qanday edi?
4. Hozirgi kunda ogʻzaki anʼanadagi professional musiqasini oʻrgatish va zamonaga yarasha saboq berish borasida qanday ishlar amalga oshirilyapti?
5. . Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining “Anʼanaviy ijrochilik” kafedrasi haqida nimalarni bilasiz?

***II. Mustaqil mashg'ulotlar.***

1. Chang cholg'usi borasidagi turli olimlarning fikrlari keltirilgan ilmiy adabiyotlarni topish.
2. Izlanishlar natijasida topilgan ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rganish.
3. Chang cholg'usida asarlar ijrosini mashq qilish.

***III. O'qish uchun adabiyotlar.***


1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017
2. A. Odilov, A. Petrosyans. Chang darsligi . –T., 1961
3. Ф.Кароматов. Узбекская инструментальная музыка. Т., 1972
4. А.Одилов. Пьесы для чанга. –Т., 1974

## II BOB

## Chang cholg‘usining mohir sozandalari

### 1. Usta Ro‘zmathon Isaboyev

### (1885-1964)



O‘zbek musiqa san’atida shunday ajoyib xonanda, sozanda va mohir ijodkorlarning nomlari bitilganki, ularning har biri respublikamizning turli vodiylari san’ati dovrug‘ini shinavandalar orasida mashhur etganlar.

Shundaylardan biri Usta Ro‘zimatxon Isaboyevdir. Bu mohir sozanda Namangan va Andijon musiqa ahli orasida e’tibor qozonib, “Usta” deb nom tarqatgan edi. Usta Ro‘zimatxon Isoboyev ham mashxur sozanda, ham O‘zbek cholg‘ularini yasovchi sozchi san’atkor, mehribon murabiy sifatida nom qoldirdi.U 1885 yilda Namangan shahrida yollanma temirchi oilasida dunyoga keldi.

Usta Ro‘zimatxon Ramazonoxun chaladigan chang nusxasini qog‘ozga chizib olib, u kishi Namangandan ketgandan keyin o‘zi chang yasab, unda kuylar ijro etgan.

Xozirgi Namangandagi teatr binosi o‘rnidagi kinoteatrda konsert tomoshalari uyushtirildi. Havaskorlardan iborat ana shu konsert ansambliga Ro‘zimatxon Isoboyev rahbarlik qildi. A.Navoiy nomli viloyat teatri “Namangan” musiqa bilim yurtlarining tashkil etilishida Usta Ro‘zimatxon Isoboyev o‘zining sermazmun hayoti davomida yuzlab shogirdlarga ta’lim berdi. Ular Respublikamizning turli shahar va viloyatlarida faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar. Namangan kasaba uyushmasi tomonidan tashkil etilgan musiqa cholg‘ulari ustaxonasiga ham usta Ro‘zimatxon rahbarlik qildi. Mazkur ustaxonada tayyorlangan cholg‘ular O‘rta Osiyoning boshqa Respublikalarida ham mashhur bo‘lgan.

Usta Ro‘zimatxon Isoboyev Namangan teatrida nafaqaga chiqib, to umrining oxirigacha Namangan musiqa bilim yurtida yoshlarga ta’lim berib, O‘zbek xalq va maqom kuylarini o‘rgatdi. U butun umrini sozanda shogirdlar yetishtirishga, O‘zbek musiqa madaniyatining taraqqiyotiga, musiqa merosimiz chashmalaridan elni bahramand etishga bag‘ishladi. U hamisha “Bu olamning turgan bitgani kuy, ohang” der edi.

Usta Ro‘zimat Isaboyev O‘zbek san’atini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” unvoni bilan taqdirlangan.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Usta Ro‘zimatxon Isaboyevning ijodiy faoliyati haqida gapirib bering.
2. Usta Ro‘zimatxon Isaboyevning pedagogik faoliyati haqida gapiring.

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar***

1. Usta Ro‘zimatxon Isaboyev haqida qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash.
2. Chang cholg‘usi ustalari haqida ma’lumotlar to‘plash.
3. Chang cholg‘usida mashq qilish.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar***

1. Fitrat A.– “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”.

2. Семенов А.А.– “Трактат по музыке Дарвеша Али”
3. Векслер С.М.– “История узбекской музыкальной культуры» Т.1965
4. Xoltojiyev A., Begmatov S.– Madaniyat va san’at oliy o‘quv yurtlarining an’anaviy sozandalik mutaxassisliklari uchun “Chang sinfi dasturi” broshyurasi.

## 2. Fozil Xarratov
## (1926-1971)



Chang cholg‘usi ijrochiligining o‘ziga hos yo‘llari va maktablari mavjud bo‘lib, shulardan Fozil Xarratovning ijrochilik maktabi xaqida gapirib o‘tishni joiz deb bildik. Zero bu san’atkor chang cholg‘usiga bo‘lgan mehrni otasi Matyusuf Xarratovdan oldi. Otasining bu sozga bo‘lgan e’tibori, changdan sadolanayotgan ohanglar va otasining chang soziga mohirlik bilan o‘zgarishlar kiritishi yosh Fozilbekni hayratlantirar edi. Bu cholg‘uni chalib ko‘rishga, unda turli asarlar ijro etishga urinar edi.

Fozil Matyusupovich Xarratov 1926 yilda Xorazm viloyatida tavallud topdi va 1971 yilda vafot etdi. U taniqli changchi sozanda sifatida tanildi. U musiqa bilimi va ijrochilik ilk sabog‘ini o‘z otasi, mashhur changchi Matyusuf Xarratovdan oldi. Otasining mohirligini payqagan Fozilbek changni boshqacharoq qilib yasab berishni so‘raydi. Shunda Matyusuf Xarratov farzandining istagiga ko‘ra, unga yarim xromatik tovushqatoriga mansub yangi chang yasab beradi. Ana shundan so‘ng Fozilbek shunday sevinadiki, yangi cholg‘usini yeru ko‘kka ishonmas va unda erta yu kech musiqalar ijro etishga urinar edi. Uning bu harakatlarini diqqat bilan kuzatgan otasi chang cholg‘usida kuy ijro etishni va chang cholg‘usidan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgata boshladi. Qiziqishi kuchlilik qilibmi, Fozilbek otasining aytgan barcha gaplariyu, ko‘rsatib bergan barcha harakatlarini o‘zlashtirib, o‘zidan ham yangi yangi g‘oyalar qo‘shar edi. Farzandining zehni va harakatidan quvongan ota uni musiqa bilim yurtiga yetaklab bordi.

1942 yilda Fozil Xarratovlarning oilasi Toshkentga ko‘chib keladi. Fozil bu yerda avval Toshkent davlat sirkining aralash musiqa ansamblida ishlaydi.

1950-55 yillarda Toshkent Davlat konservatoriyasida A.Odilovning chang cholg‘usi sinfida o‘qiydi. Bu yerda u chang cholg‘usi bilan bog‘liq juda ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘ldi. Bu cholg‘uni mukammal darajada o‘zlashtirishga intildi. Talabalar orasida o‘zining tirishqoqligi, mehnatsevarligi va iste’dodi bilan ajralib turar edi. Shuning uchun ham uni o‘qishni yakunlagach, Konservatoriyada ishda qolishga taklif qilishadi. Keyin bir oz vaqt konservatoriyada dars beradi. Uning shogirdlari orasida G.Ne’matov, F.Shukurova, T.Xo‘jamberdiyev kabi taniqli ijrochilar bor. Fozil Xarratov jo‘shqin ijodiy hayoti davomida juda ko‘plab yutuqlarga erishdi. Moskvada bo‘lib o‘tgan Yoshlar va talabalarning VI Jahon festivalining sovrindori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist (1964). Sozanda «Hurmat Belgisi» ordeni bilan mukofotlangan. Fozil Xarratovning o‘z ijro yo‘nalishi mavjud bo‘lib, uning uslubida Xorazm ijrochilik an’analari yaqqol sezilib turadi. Uning chang ijrochiligida faqat o‘zigagina hos bo‘lgan yo‘li mavjud bo‘lib, buni bugungi kun yoshlariga o‘rgatish dolzarb masalalardan biridir deyish mumkin.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Fozil Xarratovning bolaligi haqida nimalarni bilasiz?
2. Fozil Xarratovning ijodiy faoliyati qanday bo‘lgan?
3. Fozil Xarratovning chang ijrochilik uslubiga qanday baho berasiz?

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar***

1. Fozil Xarratov hayoti va ijodi haqida qo‘shimcha ma’lumotlar izlash.
2. Fozil Xarratov ijro etgan asarlarni tahlil qilish.
3. Chang cholg‘usida mashqlar ijro qilish.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. Abdukarimov M. "Tanbur" T. 2008.
2. Shoraxmetov Sh.“Maqom yo‘llaridagi mashqlar va kuylar to‘plami”. “Bilim”, T. 2005
3. Ziyayeva M. “Dutor” T. 2008
4. Azizboyev.S “An’anaviy cholg‘u ansambli” “Musiqa” T. 2009

### 3. Faxriddin Sodiqov

(1914 – 1977)



Changni qayta ishlash ishi oldindan boshlangan bo‘lib, bunga sozanda ustozlar Usta Olim Komilov, Usta Ro‘zimatxon Isoboyev, Matyusuf Xarratov hamda Faxriddin Sodiqovlar o‘z xissalarini qo‘shganlar.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, sozanda, bastakor va ustoz Faxriddin Sodiqov ijodiy, ijrochilik, muallimlik va jamoatchilik faoliyati bilan XX asr o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U o‘zbek mumtoz musiqa an’analarini izchil davom ettirib, o‘ziga xos uslubda qo‘shiq, ashula, kuy hamda boshqa shakl va janrlarda bir qator asarlar yaratib, xalqimiz hurmat - e’tiboriga sazovor bo‘ldi. Bastakorning yaratgan musiqasi jo‘shqinligi, shiradorligi, mazmundorligi ta’sirchanligi bilan tinglovchiga huzur baxsh etadi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi F.Sodiqov qobiliyatli, mashxur musiqachi–changchi

va bastakor edi. Xalq chol’g‘ularining butun ittifoq ijrochilik ko‘rik tanlovining g‘olibi, Respublikada eng mashxur changchi va bastakor hisoblanadi.

Faxriddin Sodiqov Toshkent shaxrida 1914 yilning 13 mayida ishchi oilasida tavallud topdi. Olti yoshidan eski maktabda, so‘ngra yangi maktabda ta’lim oldi. U bolaligidan musiqaga qiziqdi. Avval dutor chertishni mahalladagi katta yoshdagi bolalardan o‘rgandi. Keyinchalik Chorsu guzarida joylashgan mashhur hofiz Shorahim Shoumarov tashkil etgan “Sanoi nafisa” jamoasi qoshidagi ansambl chiqkishlarini kuzatib bordi va tez orada ularga shogird bo‘lib ham qoldi. Nug‘monkori Mo‘minzoda ustozidan chang chalish, Abdusoat Vahobov ustozdan dutor chertish mahoratiga ega bo‘ldi. 1918 yili Turkiston xalq konservatoriyasi tashkil etilib, V.A.Uspenskiy rahbarligida eski shahar bo‘limi ochilishi munosabati bilan F.Sodiqov 1920 yildan boshlab ustozlardan saboq olishni davom ettiradi. 1924 yilda xalq konservatoriyasi negizida Toshkent davlat musiqa texnikumi ochilishi bilan 1926 yildan u yerda o‘qib, 1933 yili muvafaqiyatlili bitirdi.

Bastakor, changchi sozanda F.Sodiqov mehnat faoliyatini 1930 yili O‘rta Osiyo temir yo‘l qoshidagi klubida xalq cholg‘ulari havaskorlar to‘garagini tashkil qilishdan boshladi. 1928 yili o‘tkazilgan sozandalar tanlovida F.Sodiqov qatnashib ikkinchi darajali, keyingi yilda esa birinchi darajali diplomga sazovor bo‘ldi. 1933 yili u musiqali teatrga ishga qabul qilib, mashhur san’atkorlar bilan tanishdi, ular bilan ijodiy muloqotlarda bo‘ldi. 1937 yilda Moskvada o‘tadigan O‘zbekiston san’ati va adabiyoti dekadasiga T.Jalilov boshchiligida 100 kishidan ortiq o‘zbek ansambliga mohir sozandalar qatori F. Sodiqov ham ishlashga taklif qilindi[32]. 1938 yili filarmoniya qoshida xotin - qizlardan iborat dutorchilar ansambli tashkil etilgach, u musiqa rahbari sifatida ishladi va bastakorlik ijodi bilan repertuarini boyitdi, ijrochilik mahoratini oshirdi va tez orada mashhur jamoaga aylantirdi. Urush yillari front konsert brigadasining musiqa rahbari bo‘lib, jangchilarga xizmat qildi.

F.Sodiqov 1939 yilda atoqli keksa musiqachilardan Abduqodir Ismoilov (nay) va Axmadjon Umurzoqov (qo‘shnay) bilan xalq cholg‘ulari ijrochilarining

[32] Qosimov R."An’anaviy ijrochilik" "Fan" nashriyoti T., 2007.

Butunittifoq ko‘rigida qatnashdi. U bu ko‘rikda o‘zining “Gulnor” pyesasini va “Tanovor”, “Qari navo” singari O‘zbek xalq kuylarini ijro etdi. Xay’at a’zolari ijrochining qobiliyatini yuqori baholab, uni ko‘rik tanlov ishtirokchisi diplomi bilan mukofotladi. U tanlovda 2 – o‘rinni egallagan edi.



Ilk ansambl, nay cholg‘usida Abduqodir Ismoilov

1947-1953 yillari F.Sodiqov O‘zbekiston radiosi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari ansamblida changchi, 1953-1955 yillarda filarmoniyaning ashula va raqs ansambli sozandasi, 1955-1957 yillarda O‘zbek davlat estradasida ansambl rahbari vazifasida ishladi.

1957 yilda F.Sodiqov Yu.Rajabiy rahbarligidagi radio qoshida tashkil etilgan sozandalar ansamblga changchi sifatida taklif qilindi. 1959 yilda maqomchilar ansamblida changchi, 1961 yildan esa mazkur ansamblga musiqa rahbari etib tayinlandi va shu vazifada umrining oxirigacha ish faoliyatini olib bordi. 1972 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida yangi tashkil topgan Sharq musiqasi kafedrasida ishlab, maqom ijrochichigi bo‘yicha talabalarga ustozlik qildi.

F.Sodiqov yaratgan noyob va barkamol musiqiy asarlarni, ayniqsa, milliy qo‘shiqchilik san’atining rivojlanishiga qo‘shgan hissasini inobatga olgan holda 1967 yili O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindi.

F.Sodiqov musiqaning turli janrlarida ijod qildi, uning ijodida kuy, qo‘shiq va ashula asosiy o‘rin tutadi. U klassik va zamondosh shoirlar she’rlariga 300 dan ortiq asarlar yaratdi. Jumladan, G‘.G‘ulom so‘ziga 1934 yili bastalagan “Hormang endi kolxozchilar”, “Marhabo” (Mirtemir so‘zi), “Vatandan minnatdorman”, “Ey chehrasi tobonim” (Muqimiy so‘zi), “O‘ynasin” (Habibiy so‘zi) ilk qo‘shiq va lirik ashulalari tinglovchilarni o‘ziga jalb qildi. Bastakor birin - ketin, yangi - yangi original qo‘shiq va lirik ashulalar yaratishga muvaffaq bo‘ldi. U yaratgan vatanni, mehnatni, tinchlikni madhiyalaydigan qo‘shiqlar orasida “O‘zbekistonim mening” (Uyg‘un so‘zi),“Hosilto‘yi” (M.Qoriyev so‘zi),“Jahonbo‘ylab bir ovoz yangrar” (Q.Muhammadiyso‘zi),“Tinchlik qo‘shig‘i”(U.G‘ani so‘zi), “Zarafshon”(A.Po‘lat so‘zi), “Gullar vodiysi” (T.To‘la so‘zi), “Vatan o‘xshar quyoshga” (E.Rahim so‘zi), “O‘zbekiston oltini” (Yo.Mirzo so‘zi), “Botir cho‘pon qo‘shig‘i” (Q.Muhammadiy so‘zi), “Oltin vodiy” (Z.Obidov so‘zi), “Terimchi qizga” (S.Zunnunova so‘zi), “Yorim to‘qur xon atlas” (A.Bobojonov so‘zi), “O‘lkam ipakka to‘lsin”, “Oq oltin karvon – karvon” va “Mirzacho‘lning qiziman” (Z.Obidov so‘zlari) kabi qo‘shiqlar radio to‘lqinlarida muntazam jaranglab keldi. Bastakorning ko‘plab qo‘shiq va ashulalari tabiatni, ishq-muhabbatni, insoniylikni, go‘zallikni madh etadi: “Sevgilim”, “Tong shabodalari”, “Uyalaman”, “Hayo”(M.Qoriyev so‘zlari), “Yor bilib”, “Xo‘b de, jonim, “Yor bo‘lsang deyman” (S.Zunnunova so‘zlari), “Bir go‘zal”, “Oydin kechada” (Mirtemir so‘zlari), “Onajonim”, “Ayb etma”, “Xush havo chamanlarida”, “Muborakbod”, “Ko‘zim”, “Mezbon bo‘lay” (Z.Obidov so‘zlari), “Menga navbat”, “Shirmonoy”, “Yor bo‘lmasa”, “Go‘zal”, “Zuhroga” (T.To‘la so‘zlari), “Ochil nihol”, “So‘lim bahor”, “Visol gulshani2, “Vafo qo‘shig‘i”, “Suv suluv qo‘shig‘i” (A.Isroilov so‘zlari), “Xumor”, “Shaydosiman”, “Tashna qalbim” (Yo.Mirza so‘zlari).

F.Sodiqov B.Gienko bilan hamkorlikda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sahna yuzini ko‘rgan “Ota o‘g‘li” (H.Sharipov pyesasi) musiqali dramasi va T.Toshmatov bilan hamkorlikda «Inbuzarlar» (Sh.Nizomiddinov pyesasi) musiqali drama, S.Hayitboev bilan hamkorlikda “Saltanat larzada” (V.Sa’dulla pyesasi) musiqali dramasi, D.Zokirov bilan hamkorlikda “Go‘zal” nomli telepostanovkalarga

musiqa yaratdi. O‘zbekiston radiosi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun T.Toshmatov bilan hamkorlikda T.To‘la so‘ziga «Yangi Toshkent» nomli syuita va quyidagi qo‘shiqlarni yaratdi: «Ko‘ngil sen» (S.Qo‘qonbekov so‘zi), “O‘zbekiston”(T.Rajabiy so‘zi), “Ko‘nglida bo‘lsa”(T.Mo‘minov so‘zi). Bulardan tashqari, u “Vatan marshi”, “Qurilish marshi”, ”Gulnor” “O‘zbekcha vals”, “O‘xsharsiz” kabi cholg‘u kuylarini yaratdi va **O‘zbekiston radiosining ramziy “Chaqiriq” kuyini ijod qildi**.

Ajoyib inson, mashhur bastakor, mashhur sozanda va ustoz F.Sodiqov XX asr musiqa san’atining rivojlantirishiga qo‘shgan hissasi uchun 1964 yili «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan va orden, medallar bilan mukofotlangan.

Ustoz o‘z changi bilan 40 yildan ortiqroq vaqt davomida juda ko‘p tinglovchilarni o‘z ijodi va ijrosidan bahramand etdi. Uning ijodida “Gul jamol”, “Garduni Segoh”, “O‘yin dugohi” xalq kuylari, T.Jalilovning “O‘ynasa”, “Qorabayir”, “To‘yona”, “Hosil to‘yi”, “Qurilish marshi”, “O‘zbekcha vals”, “O‘zbekiston qizi” syuitasi, M.Qoriyev so‘ziga yozilgan “Tinchlik qo‘shig‘i”, “Yashilqishloq”, “Zarafshon”, “To‘y muborak”, “Raqqosa” kabi asarlari muhim o‘rin egallagan.

F.Sodiqov bir qancha shogirdlar yetishtirib chiqardi. Bular: Mamasiddiq Mamadaliev, Nazirxon Kamolov, Abdurahmon Xoltojiyev kabilardir.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Faxriddin Sodiqov qaysi jihatlari bilan elga mashxur bo‘lgan?
2. Faxriddin Sodiqovning ish faoliyati haqida ma’lumot bering.
3. Faxriddin Sodiqovning yaratgan asarlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Faxriddin Sodiqovning ijrochilik mahorati qanday bo‘lgan?
5. Faxriddin Sodiqovning chang cholg‘usi ijrochiligi haqida ma’lumot bering.

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar.***

1. Faxriddin Sodiqovning bastalagan asarlari haqida ma’lumot to‘plash.

2. Faxriddin Sodiqovning chang cholg‘usi uchun yaratgan asarlarini mashq qilish.
3. Faxriddin Sodiqov haqida yanada ko‘proq ma’lumotlar toplash va tahlil qilish.
4. Faxriddin Sodiqovning chang cholg‘usida ijro etgan asarlarininf magnit yozuvlarini ko‘proq tinglash.
5. Faxriddin Sodiqov ijodiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni o‘qish va ularda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilish.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. Ravshan Yunusov “Faxriddin Sodiqov” T. 2005
2. Музыкально- энциклопедический словарь. Москва. 1990
3. Ф.Кароматов “Вопросы музыкознания (материалы симпозиума)”, 1980
4. A.Jabborov “O‘zbek bastakor va musiqashunoslari” , T. 2004
5. Yu.Rajabiy, I.Akbarov “O‘zbek xalq musiqasi tarixi”. T., “O‘qituvchi” 1981

## 4. Abdurahmon Xoltojiyev



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist A.Xoltojiyev qobiliyatli, mashxur sozanda – changchi, qonunchi va murabbiydir.

II Respublika Yunus Rajabiy maqomchilar ko‘rik tanlovida faol qatnashib, fahriy birinchi o‘rin sohibi bo‘ldi. (1987 yil)

A.Xoltojiyev 1957 yilda Marg‘ilonda ishchi oilasida dunyoga keldi. U juda yoshligidan musiqaga mehr qo‘ydi.

1972 yili A.Xoltojiyev Farg‘ona san’at bilim yurtining “chang” sinfiga o‘qishga kirdi. Bu yerda u tajribali o‘qituvchi mutaxassis Mamasiddiq Mamadaliyevdan chang sirlarini o‘rgandi. 1976 yili Toshkent Davlat konservatoriyasining Sharq musiqasi fakultetiga o‘qishga kirib, mashhur sozanda va bastakor, keyinchalik sevimli ustozi bo‘lgan Faxriddin Sodiqovdan ta’lim olish baxtiga muyassar bo‘ldi. 1981 yili Toshkent Davlat konservatoriyasini bitirib Ikromjon Bo‘ronov rahbarligidagi harbiy ansamblda xizmat qildi. 1983 yili A.Xoltojiyev maqom ansambliga ishga kiradi. 1989 yili O‘rta Osiyoda birinchi marta maqom sozandalari ansambli “Oltin disk” oldi. Sozandalarga alohida qilib “Kumush disk” berishdi. O‘zbekistondagi ellikka yaqin qo‘shiqchi va xonandalarga “qonun” cholgucida jo‘r bo‘lib, O‘zbekistonda birinchi bo‘lib “qonun” cholg‘usini

olib kelib targ‘ib qilgan. Uning 50 ga yaqin shogirdlari mavjud. Xozirgi kunda ustoz A.Xoltojiyev O‘zbeksiton davlat konservatoriyasining “An’anaviy ijrochilik” kafedrasida bir necha yillardan beri yosh sozanda ijrochilarni tarbiyalab kelmoqda.

A.Xoltojiyev chang cholgusi ijrochiligida buyuk ustoz sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqov ijro uslubini ma’lum darajada saqlab qolganligini o‘zi alohida ahamiyatga egadir. Bu bilan u an’anaviy chang ijrochiligini eng muhim bo‘lgan talqin asoslarini kelajak avlod uchun meros qilib qoldiradi, zero uning ishi o‘tmish ijodkorlarga xos jarayondir.

1995 yilda A.Xoltojiyevning madaniyat va san’at oliy o‘quv yurtlarining an’anaviy cholg‘uchilik mutaxassisliklari uchun “chang cholg‘u sinf dasturi”ni chiqardi.

Bundan tashqari 2009 yilda “An’anaviy qonun ijrochiligi” nomli darsligi nashrdan chiqdi.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Abdurahmon Xoltojiyevning ijodiy faoliyati qanday bo‘lgan?
2. Abdurahmon Xoltojiyevning chang ijrochiligi haqida gapiring.
3. Abdurahmon Xoltojiyevning ilmiy va pedagogik faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar.***

1. Abdurahmon Xoltojiyevning ijodi va hayoti haqida ko‘proq ma’lumotlar to‘plash.
2. Abdurahmon Xoltojiyevning ilmiy nashrlari bilan tanishish.
3. Abdurahmon Xoltojiyev ijro etgan asarlarni tahlil qilish
4. Shu asarlarni chang cholg‘usida mashq qilish.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. Xoltojiyev A. "An’anaviy qonun cholg‘usi ijrochiligi" T., 2005
2. Alimboyeva K., Ahmedov M.– “O‘zbek sozandalari” T., 1965

3. Кароматов.Ф. Узбекская инструментальная музыка. Т., 1972
4. Rajabiy I.– “Maqomlar masalasiga doir” T., 1963

# III BOB

## An’anaviy chang ijrochiligini talabalarga o‘rgatish.

### 1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida chang cholg‘usi ijrochiligini o‘rgatish yo‘llari

Talaba o‘z o‘qituvchisining ko‘rsatma va fikrlariga ko‘r ko‘rona ergashib bo‘ysunishi emas, balki biror masala yuzasidan o‘zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildira olishi kerak. Pedagog rahbarligida o‘tiladigan darsning ahamiyati katta, lekin bu ish talabaning mustaqil ishlari muhimligini inkor etmaydi. Talabaning mustaqil mashg‘ulotiga sarf bo‘layotgan vaqtini bekor o‘tkazmasligini o‘rganib borish kerak. Buning uchun talabaga mustaqil mashg‘ulotni qanday tashkil qilish, nimalarga ko‘proq e’tibor berish kerakligini tushuntirish lozim. Vaqtdan ratsional va unumli foydalanish mustaqil ishlash asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi zarur.

Asosiy unsurlaridan yana biri mashg‘ulotning muntazamligidir. Ijroni o‘rgatishning dastlabki davridan boshlab talabada muntazam mustaqil ishlashni ko‘nikmasini hosil qilish zarur. Odatda, muntazamlikka erishish qiyin bo‘lsa ham, bunday mashg‘ulotlar asta-sekin odat tusiga ki‘rib borishi maqsadga muvofiqdir. Ayrim talabalarning uyga berilgan vazifani tayyorlay olish hollarini ham uchratamiz. Buning sababini bir so‘z bilan tushuntirish qiyin. Lekin ko‘p hollarda uy vazifasi tayyor emasligining sababi talabaning darsga bo‘lgan yomon munosabati yoki dangasaligida emas, balki vazifani oxirigacha tushunib yetmasligi, musiqa asarini o‘rganishga qanday yondoshish kerakligini bilmasligidadir. Shu sababli mustaqil ishlash uchun berilayotgan vazifa talabaga batafsil tushuntirilishi, talabaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirilishi lozim. Ba’zi talabalar mustaqil mashg‘ulot paytida berilgan musiqa asarini boshidan oxirigacha ko‘p marotaba takrorlayveradilar. Bunda musiqa asarining ma’nosini va o‘ziga xos

xususiyatlari to‘la va aniq tahlil qilinmaydi. Asar talaba oldida ijro etib bera olish uchungina yuzaki takrorlanadi.

Mustaqil shug‘ullanishdagi mashg‘ulotlarning kamchiliklardan yana biri talabalar vazifani tayyorlash jarayonida o‘z ijrolarini nazorat qila olmasliklaridir. Masalan, musiqa asarining yod olinishida biror nota noto‘g‘ri o‘rganiladi va buni talabaning o‘zi sezmaydi. Yoki ma’lum bir ijro usuli noto‘g‘ri bajariladi va bu ham talabaning nazaridan chetda qoladi. Bunday kamchilik dars paytida o‘qituvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ijro paytida o‘zining harakatlari, tovushlarning to‘g‘riligini nazorat qilish ko‘nikmasi talabalarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki reja ravishda olib borilgan mashg‘ulotlar evaziga erishiladi. O‘z o‘zini nazorat qilishning ijrochi uchun ahamiyati juda katta u orqali ijrodagi kamchiliklarga barham berish mumkin.

Mustaqil mashg‘ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo‘ladi? Yuqorida aytib o‘tganimizdek, mustaqil mashgulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq bo‘lsa, talabaning vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg‘ulot qanday kechishidan qat’iy nazar, uni ma’lum reja asosida olib borish yaxshi natija beradi. Quyida mustaqil mashg‘ulotlarning tahminiy tuzilishi va vaqtini keltiramiz:

1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa.
2. Yangi berilgan vazifani o‘zlashtirish 15-20 daqiqa.
3. Dam olish uchun 5 daqiqa.
4. Oldin o‘rganilgan vazifalarni takrorlash 20-25 daqiqa.

Keltirilgan vaqtlar me’yori taxminiy bo‘lib, uni belgilashda talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining katta-kichikligiga qarab kamaytirish yoki, aksincha, ko‘paytirish mumkin. Mustaqil mashg‘ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etmoqda. Bu bir qarashda kamdek ko‘rinishi mumkin. Ammo mashg‘ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko‘zlangan natijaga bemalol erishish mumkin.

Musiqa asarini yod olishni har bir sozanda qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Bu borada hamma uchun yagona ko‘rsatma bo‘lishi qiyin. Ba’zi sozandalarda tekstni ko‘rib eslab qolish qobiliyati kuchliroq

bo‘lsa, boshqalarida eshitib eslab qolish qobiliyati kuchli. Shu sababdan ham asarni yod olish ishida ularning uslublari turlicha bo‘ladi. Muhimi, musiqa asari qaysi bir metod bilan yod olinishidan qat’i nazar, u sozandaning yodida mustahkam o‘rnashib qolishidir. Hozirgi paytda o‘quv yurtlaridagi o‘zlashtiriladigan ma’lumotlar miqdorining ortib borishi, kam vaqt sarf qilib ko‘proq natijaga erishishni taqozo etadi. Talabalarning mustaqil mashg‘ulotlari muvaffaqiyatli bo‘lishiga o‘qituvchi rahbarligida sinfdagi darsni shu mustaqil mashg‘ulotga yaqinlashtirib o‘tish yordam beradi. Bunda talaba barcha vazifalarni mustaqil bajaradi va o‘qituvchi kerak bo‘lgandagina o‘z ko‘rsatmalarini beradi. O‘qituvchining mustaqil mashguloti kunning qaysi vaqtiga mo‘ljallanishi kerak? Bunday mashgulot vaqtini belgilash talabaning kun tartibiga bog‘liq. Agar o‘quv yurtidagi mashg‘ulotlar asosan kunning birinchi yarmida bo‘lsa, mustaqil mashg‘ulot kunning ikkinchi yarmida o‘tkaziladi. muhimi, mustaqil mashg‘ulot har kuni bir vaqtda o‘tkazilishi.

Uy vazifasini bajarishning bir qator muhim tomonlari bo‘lib, bularni talaba esda tutishi zarur. Shulardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz: Musiqa asari talaba tomonidan avvalo to‘g‘ri tushunilishi, ya’ni asar mohiyati to‘gri ochilishi asosiy vazifa qilib qo‘yilishi kerak. Oldin aytib o‘tilganidek, asar ma’nosini to‘g‘ri tushunishda ijro uslublarining tanlashishi, belgilarga rioya qilish, applekaturaning to‘g‘ri qo‘yilishi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega. Talabaning mustaqil mashg‘ulotlari paytida uning diqqat-e’tibori albatta biror konkret vazifani bajarishga qaratilishi kerak. Aks holda mashg‘ulot quruq ma’nosiz kechib, hech qanday natijaga erisha olmaslik mumkin. Ba’zi talabalar musiqa asarini o‘zlashtirish davrida nota tekstiga ko‘proq e’tibor berib, ijroning ifodali bo‘lishi kerakligini unutib qo‘yadilar. Shu kamchilikning oldini olish maqsadida talabalarning diqqat markazida doimo ijroni ifodali bajarish vazifasi turishi shart. Boshqacha aytganda, talabalar asar tekstini o‘zlashtirishga qancha kuch sarf qilishsa, ijroning ifodali chiqishiga ham shuncha e’tibor berishlari kerak. Talaba biror xatoga yo‘l qo‘ygan paytda, shu bo‘lakni vazmin tezlikda diqqat bilan qayta takrorlashi kerak. Shunda yo‘l qo‘yilgan xatoning sababini to‘g‘ri aniqlab, shu xatoga boshqa yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘radi. Talabalar ijrosidagi xatolar ham bir-biridan farq qiladi. Ayrim

holatlarning qaytarilishi talabalarda odat tusiga kirib, asarning ma’lum qismida hato deyarli har safar takrorlanaveradi. Bunga sabab noto‘g‘ri tanlangan applikatura, ijro usuli yoki boshqa bir kamchilik bo‘lishi mumkin. Bunday xatolarning kelib chiqish sababini to‘g‘ri aniqlash uni bartaraf etishning garovidir. Xatolar tasodifiy xarakterga ega bo‘lsa ham, ularga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Xatolar qanday bo‘lishidan qat’i nazar talaba o‘zining mustaqil mashg‘uloti paytida ularni bartaraf etish choralarini topishni o‘zining asosiy maqsadlaridan biri qilib qo‘yishi kerak. Chang cholg‘usi ijrosi bilan shug‘ullanish natijasida talaba ham aqliy, ham jismoniy charchashi sababli uning dam olishiga bir oz vaqt ajratilishi kerak. Aks holda ijroning sifati yomonlashib, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Musiqiy ritm, eslab qolish va eshitish qobiliyati. Ritm — musiqaning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, musiqa tovushlarining vaqt birligi ichida joylashuv qonuniyatini belgilab beradi. Talabada ritm tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish musiqa pedagogikasining eng zarur va muhim vazifalaridan biridir. Olimlarning fikricha, bu ishning qiyinligi musiqa tovushining vaqt birligi ichidagi cho‘zimini uning balandligiga nisbatan aniq qayd etib bo‘lmasligidadir. Shunga qaramasdan, olimlar talabalardagi musiqa ritm tuyg‘usini tarbiyalash mumkin, degan fikrni ilgari suradilar.

Ma’lumki, musiqa ritmi umuman musiqa asarining tashkiliy elementlaridan biri bo‘lib, asarning mazmunini, uning obrazli mohiyatini aks ettiradi. Inson o‘zining turli faoliyatida musiqa asarining mazmuni bilan tanishadi. Lekin faqatgina ijro paytida sozanda musiqa asarining mazmuni va ritmiga tobora chuqurroq tushunib boradi. Musiqa ijrosi davomida, uni eshitish paytida ochilmay qolgan fikr va tuyg‘ular ijrochi uchun tushunarli bo‘lib borishi mumkin. So‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan o‘ziga xos musiqa ritmining mohiyati sozanda tomonidan ayni ijro paytida anglanadi. Ijro jarayoni sozandaga musiqa asarining ritmik tuzilishi bilan yaqindan tanishish va uni tushunish imkonini beradi. Aytish mumkinki, musiqa asarining ijrosi talabalarda musiqa ritmi tuyg‘usini tarbiyalash va rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa asarini o‘zlashtirish davomida shu asarning ritmik shaklini

talaba tobora yaxshiroq tushunib boradi, bu esa o‘z navbatida musiqa ritmi tuyg‘usini mustahkamlash yo‘llaridan biri sanaladi.

Chang cholg‘usi ijrochiligi ta’limining dastlabki paytlaridan boshlab, nota cho‘zimlarini vaqt birligiga nisbatan o‘rgatib, boriladi. Nota cho‘zimlari xaqidagi bilimlar ijrochilik san’atini egallashda asosiy bilimlardan hisoblanadi. Har qanday musiqa asarini ijro etishda nota cho‘zimlarini anglashning cholg‘uchilik mahorati asoslaridan biridir. Talabalardan musiqa ritmi tuyg‘usini tarbiyalash ishiga ta’limning dastlabki paytlaridan kerakli darajada e’tibor berish haqiqiy sozandani shakllantirish uchun zamin yaratadi. Talaba musiqa ritmi, o‘zlashtirmasdan turib, kelajakda sozanda sifatida shakllanishi mumkin emas.

Taniqli pedagog va kompozitorlarning ta’kidlashicha, musiqa ritmining nota yozuvi orqali ko‘rsatilishi uning mohiyatini to‘la ochib bera olmaydi. Bundan kelib chiqadiki, musiqa ijrochiligidagi ritm o‘zining tabiati bo‘yicha ijodiy xarakterga egadir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bevosita ijro paytidagina musiqa ritmining tub mohiyati va ma’nosiga tushunib yetish mumkin. Musiqadan tashqarida, undan uzilgan holda musiqa ritmi tuyg‘usi xosil bo‘lishi va rivojlanishi mumkin emas. Yosh sozandaning musiqa ritmi tuyg‘usini shakkillantirish va rivojlantirishda qo‘shimcha imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlarning ba’zilarini quyida ko‘rib chiqamiz. Ijro etilayotgan musiqa asarini sanash. Ijro paytida musiqa asarining ritmik sanab chalinishi tuzilishni osonroq tushunishga yordam beradi. Umuman ijro paytidagi sanash musiqa ritmini his etishda va mustahkamlashda foydalidir. Ba’zi talabalar ijro paytida ovozlarini baralla chiqarib sanashga odatlanib qoladilar va bu odatni tark etish kelajakda ancha qiyin bo‘ladi. Ayni shu fikrni oyoq bilan sanashga o‘rganib qolgan talabalar xususida ham aytish mumkin. Asar ijrosi paytidagi bunday sanashlar, albatta o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida bunday kamchiliklarni asta - sekinlik bilan yo‘qotish choralari ko‘riladi. Tajriba ortib borgan sari talabada nota cho‘zimlarining ritmik ijrosiga nisbatan ichki tuyg‘u rivojlanib, bunday sanoqqa hojat qolmaydi. Ijrochilar ichida keng tarqalgan usullardan biri dirijyorlik qilishdir. Sozanda dirijyorlik qilish orqali musiqa asari

ritmik tuzilishini tushunish bilan birga, shu asarning kechinma va tuyg‘ularni sezishi va unga o‘zining munosabatini bildirishi mumkin.

Talabalar orasida tez-tez uchrab turadigan kamchiliklardan biri asar ijrosi davomida tezlashib yoki sekinlashib ketishdir. Bunday kamchilikni bartaraf etish uchun odatda musiqa pedagogikasida quyidagi chora qo‘llanadi: talaba ijro paytida barcha harakatlarini to‘xtatadi, bir-ikki taktni faqat ovoz chiqarib (ijro etmasdan), sanaydi, so‘ng ijroni yana davom ettiradi. Bundan tashqari, talabada asarning ritmi jihatdan yaxshi va to‘g‘ri ijro etilayotgan bo‘laklar kamchiligi bo‘lgan qismlar bilan taqqoslanishi ham yaxshi natija berishi mumkin. Talabalarda musiqa ritmi tuygusini shakllantirishda o‘qituvchining xizmati juda kattadir. Uning talaba bilan birgalikda sanani, chapak va turli harakatlar bilan yordam berishi talaba uchun foydali.

Musiqani eslab qolish qobiliyati ma’lum musiqiy materialni kerakli vaqt ichida ijrochi ongida saqlanib qolishini ta’minlaydi. Musiqa fanida ijrochi uchun eng zarur bo‘lgan uchta sifat birligi xaqida gap yuritiladi: eshitish qobiliyati, musiqa ritmi tuyg‘usi va eslab qolish qobiliyati (xotira). Eslab qolish tuzilish jihatidan murakkab qobiliyat bo‘lib, xotiraning bir necha turini o‘z ichiga oladi. Masalan, ijrochi o‘z faoliyati davomida eshitish va harakat bilan bog‘liq bo‘lgan xotira turlaridan foydalanadi. Yana ko‘rish orqali xotira turini keltirish mumkin. Tajribadan ma’lumki, har kimning xotirasi o‘zining shaxsiy tipologik xususiyatiga ega. Shu bilan birga musiqa xotirasini rivojlantirishda, olimlarning fikricha, ayniqsa musiqa ijrochiligi uchun obrazli - eshitish xotiraning foydasi kattadir. Haqiqatan ham, musiqa eshitish orqali qabul qilinib, taassurot olinadigin san’at turi bo‘lganligi tufayli, musiqa xotirasi birinchi navbatda eshitish xotirasidir. Maxsus  izlanishlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, talabalarning musiqa eshitish qobiliyati, ritmik tuyg‘usining rivojlanish tuyg‘usi bilan musiqa xotirasining sifatlari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik bor. Talabada musiqiy eshitish qobiliyati va ritm tuyg‘usi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, unda musiqiy xotirasi (yodda saqlab qolish) shunchalik sifatli bo‘ladi va aksincha, undagi eshitish qobiliyati va ritm tuyg‘usining sifati past bo‘lishi musiqa xotirasining rivojlanishiga xalaqit beradi.

Sozandaning xotirasi turli faoliyatda qatnashib ma’lum darajada takomillashib boradi. Musiqa asarini tinglashdan tortib, to uning ijorosigacha bo‘lgan faoliyatda musiqiy xotira qatnashadi. Shu bilan birga, musiqiy xotiraning to‘g‘ri shakllanishi va rivojlanishi uchun eng qulay shart–sharoit musiqa ijrochiligida yaratiladi. Musiqa asarini yod olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Ijrochi faoliyatining asosiy va o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ham shudir. Chunki asar yod bo‘lsa, ijrochilikning har taraflama erkinligi uchun imkon bo‘ladi. Talaba o‘z ongini musiqa asarini yodlashga qaratganligi unig mehnat qobiliyatini birmuncha yaxshilash va faollashtirish bilan bir qatorda, musiqa xotirasining samaradorligini ham oshiradi. Sozanda aniq ijro harakati orqali musiqa asari bilan tanishadi. Mana shuning o‘zi ham musiqa xotirasining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, musiqiy asarning ijrosi paytida sozandaning faolligi musiqa xotirasining faollashishiga ham yordam beradi. Haqiqatan ham, musiqa asarini tinglash va uni bevosita ijro etish bir-biridan farq qiladi. Tajribadan ma’lumki, musiqa asarini tinglashdan ko‘ra uni ijro etish vaqtida eslab qolish osonroq ko‘chadi. Sozandaning ijro harakati ham uning musiqiy xotirasini rivojlantirishga va mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, musiqa qo‘llanmalarini eslab qolishda yagona ko‘rsatma berib bo‘lmasligiga va bu ishga har xil yondashish mumkinligiga ishonch hosil qildik. Eslab qolishni qaysi yo‘l bilan amalga oshirish hal qiluvchi ahamyatga ega emas. Hamma gap musiqani eslab qolish ishining mazmuni, xarakteri va uslubidadir. Tushunib yod olingan materialning sifati anglamasdan yod olingan materialning sifatiga qaraganda ancha ustun bo‘ladi. Xuddi shu qonuniyatni musiqa ijrochiligi sohasida ham ko‘rishimiz mumkin. Agar talabaga ma’lum mantiqiy tartibda joylashgan tovush qatorini yodlash uchun berilsa, u vazifani unchalik qiynalmasdan bajarishi mumkin. Keyin esa shu tovush qatorning mantiqiy tartibini buzib qaytadan berilsa, talabaning bu tovushlari yig‘indisini yodlashi ancha qiyin bo‘ladi. Shunday qilib, musiqa asarini chuqurroq tushunish, uning badiiy mohiyatini, shaklini, xullas, asar muallifi nima demoqchi ekanligini to‘laroq anglash musiqa asarini yodda mustahkam saqlanib qolishining asosiy shartlaridan biridir.

Albatta, mohir chang sozandalarining kundalik mashg‘ulotlarida ma’lum bir parchani o‘n (xatto yuz) martalab takrorlash hollarini kuzatamiz. Lekin bunday takrorlashlar biri ikkinchisining aynan nusxasi bo‘lmasdan, balki har bir takrorlash o‘ziga xos badiiy yoki texnik izlanish bilan ajralib turadi. Mohir sozandalarning takroriy mashqlari ma’lum darajada ijodiy harakatga ega va har bir takrorlashda bu mashqlar o‘zining sifati bo‘yicha yangi pog‘onaga ko‘tarilib boradi. Cholgu ijrochiligi sohasida natija inson faolligi, ongli mehnati va faoliyatning maqsadga qaratilganligiga bog‘liqdir. Musiqa ijrochiligiga o‘rgatish musiqa xotirasini rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Musiqa xotirasini mustahkamlash ustida talabaning muntazam ishlashi xotiraning takomillashishini ta’minlaydi. Yirik musiqa asarlari yod olishda umumiydan xususiyga qarab xarakat qilish kerakligini ko‘plab mashxur cholg‘uchi -o‘qituvchilar aytib o‘tishgan. Boshqacha aytganda, musiqa asarining umumiy shakli va ma’nosini anglab olgandan so‘ng alohida qismlarni o‘zlashtirishga kirishish kerak. Bunday qismlarni o‘zlashtirishga kirish kerak. Bunday qismlar nisbatan tugallangan va mustaqil bo‘lishi zarur. Ijrochilik bo‘yicha qiyin bo‘lgan qismlarga ko‘proq vaqt va e’tibor berish kerak bo‘ladi. Yod olish uchun ajratib olinayotgan qismlar o‘zining hajmi jihatidan juda katta bo‘lmasligi zarur.

Ijrochilik va pedagogik tajriba ko‘rsatadiki, asarni yod olishda undagi “ma’nodor” xarakterli o‘rinlarga tayanish yaxshi natija berishi mumkin. Shuningdek, musiqiy fikr (fraza)ning boshlanishi va tugashini aniqlab olish, o‘ziga xos bezakli o‘rinlarga e’tibor berish ham mustahkam yod olishga yordam beradi. Talabalarning ba’zilarida ko‘rib eslab qolish qobiliyati rivojlangan bo‘lsa, boshqalarda eshitib yodda saqlab qolish qobiliyati ustun turadi. Bu ikki salohiyat bir maromda rivojlangan talabalarni ham ko‘rish mumkin. Asarni yod olishda qaysi usuldan foydalanishdan qat’iy nazar, muhimi, xotirada mustahkam saqlanib qolishidir.

Musiqiy asar ijrosi ustida ishlash borasida shuni aytish mumkinki, asarning xarakteri, tonalligi, badiiy obraz yo‘nalishi, kulminatsiyasi va umumiy tuzilishini anglab olish to‘laqonli ijroga yordam beradi. Bularni aniqlashda o‘qituvchining

yordami zarur. Asar nazariy jihatdan o‘zlashtirilgandan so‘ng uning amaliy ijrosiga o‘tiladi. Musiqa asarlari boshidan ohirigacha bir xil texnik qiyinchilikda bo‘lmasdan, balki uning ba’zi qismlari boshqalariga nisbatan murakkabroq bo‘lishi mumkin. Bunday paytda shu qiyin o‘rinlar alohida ajratilib, ularning ijrosi ustida maxsus mashqlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Lekin bunday ishlash jarayoni juda uzoq davom etmasligi kerak. Shu qiyin qismning ijrochi tomonidan mustaqil ravishda bekami – ko‘st ijrosiga erishilsa ham, ko‘p hollarda asarni boshidan oxirigacha ijro etganda xuddi ana shu qism asarning umumiy yo‘nalishi bilan qo‘shilmasdan, aloxida ajralib qolishi mumkin. Shu sababli qiyin qismlarni takrorlashda shu qismdan bir necha takt oldinga va keyingilarini qo‘shib ijro etish tavsiya etiladi. Asar o‘zlashtirilayotgan paytda ijrochining imkoniyatlariga mos bo‘lgan tezlikni tanlash va ijroning bir maromda bo‘lishga erishish kerak bo‘ladi. Musiqa asarining ustida to‘g‘ri ishlay bilish ijro mahoratini oshirishning omillaridan biridir.

Chang cholg‘usi ijrochiligi sinflarining tajribasida ba’zi musiqa asarlarini o‘zlashtirish ishi konsert yoki yakuniy nazoratgacha yetib bormaydi. Bu asarlar kurs ishi sifatidagina o‘zlashtiriladi. Kurs ishidan asosiy maqsad musiqa asarining umumiy mazmuni bilan tanishish, unda ishlatiladigan ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va shular asosida bayon qilinmoqchi bo‘lgan musiqaviy kechinmalarni chang cholg‘usi yordamida talqin eta bilishdir. Musiqa pedagogikasida bunday sinf ishlariga alohida e’tibor beriladi va u o‘quv jarayonining maxsus shaklini tashkil etadi. Kurs ishi sifatida o‘qitiladigin musiqa asarini o‘zlashtirish uchun ajratiladigan vaqtning chegaralanganligi shu asar ustida ishlash jarayonini jadallashtirishni anglatadi. Bunda o‘quv pedagogic jarayonning o‘zi tezlashadi; talaba oldida ma’lum materialni qisqa, chegaralangan vaqt ichida o‘zlashtirish vazifasi turadi. Buning hammasi talabadan yangidan-yangi qo‘llanmalar bilan tanishish, bir joyda turib qolmaslik, oldingi o‘tilgan qo‘llanmani bir xil ravishda takrorlayvermaslikni talab qiladi. Kurs ishi uchun ajratilgan musiqa asarlari ustida ishlash bilan notaga qarab chalish kabi mashg‘ulotlarning foydali tomoni ko‘p. Bu ikki holda ham talaba xilma-xil musiqa asari bilan qisqa vaqt ichida tanishish imkoniyatiga ega. Ayni paytda, kurs ishi bilan notaga qarab chalish mashg‘uloti ma’lum darajada bir-biridan

farq qiladi. Notaga qarab chalishda talaba material bilan bir marta epizodik tanishish imkoniyatiga ega bo‘lsa, kurs ishi jarayonida u asar bilan to‘laroq va asosli tanishib, o‘zlashtirishi mumkin. Kurs ishi bilan shug‘ulanadigan talaba, musiqa asarini bir necha bor takrorlashi tufayli o‘zi uchun shu asarning mohiyati, mazmuni, tuzilishi va boshqa sifatlarini to‘laroq ochishi mumkin. Shu asosda asarning ijodiy g‘oyasi va unda bayon etilayotgan badiiy fikrlar talabaga tobora tushunarli bo‘lib boradi. Kurs ishi uchun tanlanadigan repertuar o‘zining xarakteri, tuzilishi, mazmuni va boshqa ko‘rsatkichlari jixatidan rangbarang bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, repertuardan o‘rin olgan asarlarning shakli, unda bayon etiladigan histuyg‘ularning boyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhimi, kurs ishi uchun tanlangan asarlar talabalarga yoqishi, ularda katta qiziqish uyg‘otishi kerak. Agar asosiy repertuar talaba uchun majburiy bo‘lsa, kurs ishi uchun asarlarni talabaning xohishiga qarab tanlash mumkin. Shu boisdan ham bu erda o‘qituvchi talabaning istagiga qarshi emas, balki unga nisbatan xayrixoh bo‘lishi maqsadga muvofiq.  Kurs ishida foydalaniladigan musiqa asarlarining murakkabligi esa talabaning xaqiqiy imkoniyatlariga qaraganda ma’lum darajada qiyinroq bo‘lishi mumkin. Bu asarlar konsertda yoki yakuniy nazoratlarda ma’lum darajada ijro etilmasligini hisobga olsak, o‘qituvchi yuqorida aytilgan prinsipni qo‘llashi to‘g‘ri bo‘ladi.

Kurs ishi dastlabki paytda albatta o‘qituvchining ishtiroki va nazorati ostida o‘tishi kerak. Keyinchalik talabaning tajriba va ko‘nikmalari ortib borgan sari o‘qituvchining ishtiroki kamayib boradi va xatto musiqa asarlari bilan tanishish talabaning mustaqil mashg‘uloti paytida amalga oshiriladigan bo‘lishi ham mumkin. Bunda o‘qituvchi talabaga umumiy ko‘rsatmalar berishi bilan chegaralanadi. O‘qituvchi uchun muhimi, kurs ishi hamda musiqa asari bilan tanishish talaba tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishidir. Kurs ishi uchun asarlarni o‘zlashtirish asosiy repertuardagi asarlar ustida ishlashdan farq qiladi. Asosiy repertuardagi qiyin o‘rinlar talaba bir necha bor takrorlasa va nihoyat uni yod olsa, sinf ishidagi asarlar ijrosida u o‘z e’tiborini musiqa asaridagi badiiy obrazlarni yaxlitligicha talqin qilishga, asar shaklini o‘z ijrosi bilan umumlashtirishga qaratishi kerak. Bunda

albatta, asardagi barcha ko‘rsatma va belgilarga to‘la rioya qilishga e’tibor berish kerak. Xuddi mana shunday ijro talabaning rivojlanishiga yordam beradi. Kurs ishida talabaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadigan imkoniyatlar shunday ko‘pki, bunday mashg‘ulot bilan muntazam ravishda shug‘ullangandagina shu imkoniyatlar to‘la ochilishi mumkin Talaba kurs ishi uchun tanlangan asarlar ijrosiga muntazam ravishda vaqt ajratgan holdagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. O‘qituvchining musiqiy dunyoqarashini, eshita olish tajribasini va professional jihatlarini kengaytirishda sinf ishlaridan samarali foydanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida sinf ishalaridan foydalanish talabaning umumiy musiqiy rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir.

Notaga qarab ijro qilish murakkab jarayon bo‘lib, u maxsus mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi. Notaga qarab ijro etish jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, unda qo‘yidagi qismlarni ko‘rishimiz mumkin: nota ko‘rinishining talaba ongiga etib borishi; talaba ongida qanday harakatni amalga oshirish kerakligining aniqlanishi; kerakli harakatlar yordamida berilgan notaning ijro etilishi. Notaga qarab ijro etish jarayonining qanchalik tez sodir bo‘lishi nota ko‘rinishini qabul qilib (anglab), kerakli harakatni amalga oshirish tezligiga bog‘liq. Agar jarayonining biror qismi yaxshi ishlamasa, notaga qarab ijro etishda ko‘zlangan natijaga erishish qiyin bo‘ladi. Notaga qarab ijro etishning murakkab taraflaridan biri shuki, musiqa asarining bir qismi ijro etilayotganda cholg‘uchi keyingi qismini ko‘rib, uning ijrosiga tayyorgarlik ko‘rishga tayyorlanadi. Tajribasiz talabalar ko‘p holda buning uddasidan chiqa olmaydilar natijada, ularning ijrolari uzilib qoladi. Diqqat-e’tiborni bir maqsadga qarata bilish notaga qarab ijro etishning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan omillardan biridir. Notaga qarab ijro etish qobiliyatini rivojlatirishda quyidagi amaliy mashqlar yordam berishi mumkin; eng oddiy musiqa, boshlang‘ich taktning birinchi yarmi ijro etilayotganda talaba o‘z e’tiborini shu taktning ikkinchi yarmiga qaratadi. Xuddi shu usul asarning keying taktlarini ijro etishda ham qo‘llanadi. Mashg‘ulotlar yordamida talabaga berilayotgan vazifa asta -sekin murakkablashtiriladi, lekin bu vazifa talabaning

imkoniyatlari darajasida bo‘lishi kerak. Sozandada notaga qarab ijro eta olish qobiliyatini rivojlatirish muammosi va uni hal etishga qaratilgan ko‘rsatmalar musiqa pedagogikasida alohida o‘rin tutadi. Ko‘zga ko‘ringan ijrochi - o‘qituvchilarning fikricha, notaga qarab ijro etish sozandaning kundalik mashg‘ulotlari qatoridan o‘rin olishi shart. Talaba muntazam ravishda notaga qarab ijro etish bilan shug‘ullangan taqdirda turli davrga oid bo‘lgan rang barang musiqa asarlari bilan tanishadi. Notaga qarab ijro etilayotgan musiqa asarlarining hammasi ham kelajakda talaba tarafidan yod olinishi shart emas, balki ular talabaning fikrlash, yangilik ochish va yangi, o‘ziga ma’lum bo‘lmagan taassurotlar bilan tanishish ehtiyojini qondirish uchun ijro etiladi. Notaga qarab ijro etayotgan sozandaning fikrlashi birmucha faollashadi, uning musiqiy qo‘llanmalarni qabul qilib olishi ma’lum darajada o‘tkirlashadi. Shu bilan birga talaba notaga qarab ijro etayotgan musiqa asariga butun vujudi bilan beriladi va uning his-tuyg‘ulari ham bu jarayonda bevosita ishtirok etadi. Bundan kelib chiqadiki, notaga qarab ijro etish mashg‘ulotlari ijrochi repertuar, uning nazariy va amaliy bilimlarini boyitibgina qolmasdan, balki umuman musiqiy fikrlash jarayonining sifatini yaxshilaydi.

Notaga qarab ijro etish talabaning umumiy musiqiy rivojlanishida eng samarali yo‘llardan biridir. Chang cholg‘usi ijrochiligi ta’limi o‘z oldiga talabaning umumiy musiqiy qobiliyatini, professionalligini rivojlantirishni assosiy maqsad qilib qo‘yar ekan, shubha yo‘qki, notaga qarab ijro etish ana shu maqsadning amalga oshishida asosiy va maxsus vosita vazifasini bajaradi. Notaga qarab ijro etishning muhimligi tan olingan holda, amalda unga ba’zan keraklicha e’tibor berilmaydi. Albatta, notaga qarab ijro etishga qancha ko‘p vaqt sarflansa, bu o‘z navbatida, ma’lum ijobiy natija berishi mumkin. Lekin bu jarayonni tashkil qilishda ongli nazorat yo‘lga qo‘yilishi lozim. Tajribadan ma’lumki, sozandaning notaga qarab ijro etish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning ichki eshitish qobiliyati ham shunchalik rivojlangan bo‘ladi. Ya’ni bunday sozanda nota belgilariga ko‘zi tushishi bilanoq shu tovushni ijrosiz eshita oladi. Demak, sozandadagi «ko‘rish orqali eshitish» qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning notaga qarab ijro eta olishi ham shunchalik sifatli bo‘ladi.

Notaga qarab ijro etishni amalga oshirayotgan paytda talabadan nota yozuvidagi barcha belgilariga qat’iy rioya qilishni birdaniga talab qilib bo‘lmaydi. O‘qituvchi bu jarayonda talaba birinchi navbatda e’tibor berishi kerak bo‘lgan narsalarni olindan tushuntirib, belgilab berishi katta ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, talaba asarlardagi yaxlit musiqiy fikrning boshlanishi va tugallanishiga birinchi navbatda e’tibor berishi kerak. Ya’ni asarda bayon etilgan tugal fikrning uzilib qolishi yoki tushunarsiz ijro etilishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Notaga qarab ijro etishni asarda bayon etilayotgan musiqiy fikrlar asosida tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Notanish musiqa asarlarini notaga qarab ijro etishdan oldin ko‘zdan kechirib, tanishib chiqish, ya’ni shu asarni cholg‘usiz «ijro etish» tavsiya qilinadi. Bunda, birinchidan, sozanda bevosita ijro harakatlaridan xoli bo‘ladi; ikkinchidan, asarning tuzilishni o‘rgatish imkoniyati tug‘uladi, Qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, talaba asarning nota yozuvini ko‘zdan kechirib, cholg‘usiz «dilda» ijro etishi uning ichki eshituv qobiliyatini ma’lum darajada rivojlantirib boradi. Tajriba guvohlik beradiki, musiqa asari bilan bunday tanishuvdan keyin ijro engil va aniqroq amalga oshiriladi, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatolar kamayadi va ijro erkinligi ta’minlanadi.

O‘quv jarayonida talabalarga individual yondoshish ham muhim omillardan biri sanaladi.  Insonlar individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilishi ma’lum. Mutlaqo bir xil xususiyatli odamlar bo‘lmaganidek, har bir talabaning xususiyatlari ham o‘ziga xos va takrorlanmasdir. Ta’lim - tarbiyaning talablari esa barcha talabalar uchun yagona bo‘lib qolaveradi. Samarali natijaga erishish uchun talabalarga nisbatan pedagogic vositalarni qanday qo‘llash kerak? Ta’lim ishida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, shu xususiyatlar asosida ishni tashkil etish yuqoridagi savolga ma’lum darajada javob bo‘lishi mumkin.

Ta’lim jarayonida talabalarga individual yondashish muammosi ijodiy xarakterga ega. Bu jarayonning har bir bosqichiga oldindan aniq ko‘rsatma berib bo‘lmaydi. Pedagogikada tarbiyalanuvchilarga individual yondashish masalasi ta’lim -tarbiya ishining barcha bo‘g‘inlarini o‘z ichiga oladi. Individual yondashishning mohiyati talaba oldiga qo‘yilgan umumiy tarbiya vazifasining har

bir talabaga, uning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogic ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshirilishidir. Amalda xulqi, xarakteri, salohiyati turlicha bo‘lgan talabalarni uchratish mumkin. Bazi talabalarning qobiliyatlari yoshlik chog‘laridanoq sezilsa, boshqalarida qobiliyatni aniqlash ancha vaqt talab etadi. Ayrim talabalar sho‘x, o‘yinqaroq bo‘lib, ko‘p narsaga qiziqsalar, boshqalari vazmin, bosiq bo‘ladilar. Talabalarning xarakter va xulqlari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ularga o‘qituvchining e’tibori talab etiladi. Talabalarga induvidual yondashish birinchi, navbatda ularda ijobiy sifatlarni mustahkamlash va salbiylarini yo‘qotishga qaratiladi. Tarbiyada individual yondashish samaradorligini oshirishda talaba xarakteridagi ijobiy sifatlarga tayanish foydali, degan fikr avvaldan ma’lum. Masalan, cholg‘uni o‘rganayotgan talabada biror usul boshqalariga nisbatan yaxshi rivojlangan deylik, Repertuar tanlashda o‘qituvchi talabaning xuddi shu sifatlarini hisobga olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu talabadagi kamroq rivojlangan sifatlarga e’tiborsizlik bilan qarash, degani emas. Aksincha, talabalardagi ijobiy sifatlardan unumli foydalanish ularda kamroq rivojlangan sifatlarni ishga solish va mukammallashtirishga yordam beradi.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Mustaqil shug‘ullanadigan sozanda talabalarga qanday talablar qo‘yiladi?
2. Musiqiy asarni yod olishda nimalarga ahamiyat qaratish lozim?
3. Talabalar orasida tez tez uchrab turadigan kamchiliklar nimalardan iborat?
4. Sozandaning xotirasini takomillashtirish uchun nima qilish kerak?
5. Sozanda asar tanlashda nimalarga e’tibor berish kerak?
6. Talabalarga individual yondoshishning afzalliklari nimalardan iborat?

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar.***

1. Chang cholg‘usida asarlarni mustaqil mash qilish.
2. O‘rganajak asarni yodlashga urinish.
3. O‘rganish jarayonida yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklarni aniqlab, bartaraf etish.
4. Xotirani mustaxkamlovchi mashqlarni bajarish.

5. Yetuk sozandalarning repertuarini kuzatish va o‘rganish.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. Shoraxmetov Sh. “Maqom yo‘llaridagi mashqlar va kuylar to‘plami” “Bilim”, T., 2005.
2. Qosimov R.”An’anaviy ijrochilik”, T., "Fan" 2007.
3. Lutfullayev A. “Chang tarannum etganda” T., 2004.
4. Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir”T., 1963.


## 2. Chang cholg‘usi ijrochiligiga hos bezaklar

Musiqiy cholg‘ularimiz orasida “chang” o‘ziga xos ijro uslublariga ega bo‘lgan sozdir. Chang torli – urma cholgular guruhiga kiradi. U torlarga maxsus bir juft cho‘pning urilishi natijasida tovushlar hosil qiladi.

Chang ijrochiligining an’anaviy uslubini mukammal egallash uchun quyidagi musiqiy bezaklar, texnikaviy xarakatlar va ijroviy uslublarni o‘zlashtirish muhimdir.

Bezaklar:

1. Yakka zarb
2. Qo‘shzarb
3. Qochirim
4. Forshlag
5. Mordent
6. Rrang
7. Pirrang
8. Rez

An’anaviy chang ijrochiligida bezaklar asosan chap qo‘lda, yo‘ni bosh tovushlar chap qo‘lda boshlanadi (o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligida bezaklani ifoda etishda o‘ng qo‘l etakchilik qiladi. O‘zbek xalq cholg‘u bo‘limidagi chang

ijrochilari uslubidan “An’anaviy ijrochilik”uslubining farq qilish jihatlaridan biri ham aynan shudir.

**Qochirim** – ijroda bir qator texnikaviy bezaklar bilan ifodalanib forshlag, mordent, trel kabi sayqallar namunasida harakterlanadi. Odatda, bu bezaklar oddiy va murakkab turlarga bo‘linadi.

**Forshlag** – (oldindan urish) asosiy tovushni oldindan yarim yoki bir ton oralig‘idagi tovush yordamida yengil urib chalish.

**Forshlagni oddiy ko‘rinishi**:



**Forshlagni murakkab ko‘rinishi:**



**Mordent** – o‘tkir ifodada va uch nota (tovush) talqini yordamida erishiladi:



**Kashish** – yarim va chorak ton oralig‘idagi yuqoridan pastga qarab jaranglaydigan glissando ko‘rinishidagi bezak. Changda har ikki qo‘lni yengil va tez harakati bilan erishiladi:





**Yakka zarb** – tovush chiqarish vositasining eng oddiy usuli bo‘lib, har ikki qo‘lning oddiy harakati bilan erishiladi. Yani chang cho‘pi bilan urib chalinadigan bittalik zarb. Shu bilan birga yakka zarb chang ijrochiligining asosiy mohiyatini harakterlovchi usuldir. Ijroda kuyning harakatini ifodalashda tovush kuchi, harakteri va harakati muhim omildir. Shuning uchun, yakka zarbni ma’noli ifodasiga erishishda cholg‘u torlariga cho‘pning to‘g‘ri aniq va ongli tarzda urulishi muhim ahamiyat kasb etadi:

**Qo‘sh zarb** – changda cho‘p bilan har ikki qo‘lning bir vaqtdagi harakati asosida bir notani chalish natijasida erishiladigan zarb. Chang ijrochiligi amaliyotida qo‘sh zarb asosan ikki ko‘rinishda talqin etiladi.

A) Bir simni ikki cho‘p bilan bir paytda urib chalish:




B) Har xil balandlikdagi ikki tovush simlarini bir paytda urib chalish oktava, kvinta, kvarta. Amaliyotda ko‘proq oktava oralig‘idagi qo‘sh zarb ishlatiladi.




**Rrang** – changda chap qo‘lni yumshoq – mo‘tadil holatda, o‘z holicha kerakli simga yo‘naltirib, o‘ng qo‘l bilan esa qattiqroq asosiy simga zarb urush natijasida erishiladigan o‘ziga hos bezak. Shu bilan birga kuchli tovush ifoda etilishini oldindan tayyorlash va o‘ziga hos bezash desa ham bo‘ladi.

Ch   o‘ng        ch   o‘ng                O‘ch,o‘,ch,o‘,ch,o‘ch,



**Pirrang** – chap va o‘ng qo‘l bilan birin- ketin chalinadigan to‘rtta zarbning birikmasi. Ijro uslubi o‘ng qo‘ldan boshlanib chap qo‘lda tugaydi kuchli xissa oxirgi chap qo‘lning zarbiga to‘g‘ri keladi.. Odatda, mazkur bezak an’anaviy ijrochilikdagi mavjud barcha cholg‘ularda ham keng qo‘llaniladi. Changda esa, o‘ziga hos xususiyatli tomonini to‘laroq namoyon etadi. Yani, bezak sifatidagi xarakterni chang cholg‘usida ochib berish, boshqa cholg‘ularga nisbatan qulayroq va mosdir.

O‘, ch, o‘, ch, o‘, ch, o‘, ch, o‘, ch, o‘, ch  o‘, ch, o‘, ch



O‘ch, o‘,ch,   o‘,ch,o‘ch



O‘,ch,o‘,ch



**Rez** – zarblarning ketma ket harakatda tez va ko‘p marotaba takrorlanishiga aytiladi. Chang ijrochiligi jarayonida ko‘proq tovush tarovatini nafis va muloyim tarannum etish, ularga rang berishda latif ohanglarga erishish yo‘lida ko‘proq oktava

oralig‘idagi tovushlarning bir vaqtda rez usuli orqali, bir meyyorda qo‘shib ketma-ket chalinishi joriy etilgan.

**Mayda rez** – yuqorida ko‘rsatilgan pirrangning rez uslubida ketma ket va uzluksiz yani, ligata qilib qo‘shib chalishdir. Chang ijrochiligi amaliyotida keng qo‘llaniladi. Odatda, milliy cholg‘u ijrochiligida har bir omil bir qator ko‘rinishlarga egadir. Shu nuqtai nazardan “Rez” uslubi ham turli ko‘rinish usullariga ega. Bu o‘rinda “Mayda rez” uslubi uning bir ko‘rinishidir.

Nota ifodasi: ijro etilishi:

O‘, ch, o‘, ch, o‘, ch, o‘, ch, o‘, ch, o‘, ch o‘, ch, o‘, ch





Chang ijrochiligida o‘ziga xosligi va ruhiyati bezakni ifoda etadigan yana bir sayqal mavjud. Bu bezak ham kuyga rang va joziba kiritish maqsadida ustoz Faxriddin Sodiqov ijro uslubida shakllangan va ijrochilikda an’anaga aylangan. Bu sayqalning boshqa bezaklardan farqi u turg‘un tovushlar va kuy bo‘laklarning tasdiqlovchi tovushlardan qo‘llaniladi, ya’ni arpedjio ko‘rinishida. Asosiy ko‘rinish–ma’lum tovushning sayqallangan asosiy turg‘un tovushga yordamchi ohang sifatida tarannum etish bilan baholanadi..

Bu usulning nota yozuvidagi ko‘rinishi:



Yuqorida keltirilgan sayqallar, o‘zbek mumtoz musiqa namunalari bo‘lmish maqomlar va maqom yo‘llarida yaratilgan xalq kuy va ashulalarini chang

cholg‘usida ijro etish uchun eng zarur va hos bezaklardir. Bu bezaklarni har bir ijrochi o‘quv jarayonida nafaqat texnik jihatdan o‘zlashtirishni, balki, kuy hxrakterida kelib chiqqan holda mos va idrokli ifodasiga erishishni oldiga maqsad qilib olishi zarur. Shu bois, ijro uslubini o‘zlashtirish jarayonini quyidagi tartibda olib borilishi tavsiya etiladi.

Changning tuzilishi haqida qadimgi buyuk olimlarni va xozirgi taniqli arboblarning fikrlarini batafsil bayon etdik. Changni rekonstruksiyadan oldingi va rekonstruksiya qilingani haqida ma’lumot berib o‘tdik.

Yuqorida keltirilgan sayqallar O‘zbek mumtoz musiqa namunalari bo‘lmish maqomlar va maqom yo‘llarida yaratilgan xalq kuy va ashulalarini chang cholg‘usida a ijro etish uchun eng zarur va xos bezaklarni yoritib berishga harakat qildik.

O‘ylaymizki, ushbu kitobimiz bilan tanishib chiqqan har bir o‘quvchida oz bo‘lsada, an’anaviy chang ijrochiligi haqida tushuncha hosil bo‘ladi. Talabalar uchun esa ijro mahoratini oshirish, o‘z ijro uslubiga ega bo‘lishda yordam beradi degan umiddamiz.

Tavsiyalar:

1. Cholg‘uni ya’ni changni sozini bir qator tekshirib olgach qulay joylashib, chang cho‘plarini qo‘lga o‘rnashtirish kerak.

2. Kuylarni nota matnidan o‘qiganda shuni unitmaslik kerakki: O‘zbek musiqasini nota vositasi to‘laligicha aks ettira olmaydi. Shu bois kuy matnini yodlash lozim.

3. Yod bo‘lgan kuy matnini ko‘p bora ijro etishning yutug‘i shundaki: birinchidan, kuyda yangi ijodiy izlanishlar qilish mumkin. Ikkinchidan, kuy o‘ziniki bo‘lgach unga xar bir ijrochi o‘z didi va salohiyatiga qarab turli bezaklar berishi mumkin. Uchinchidan kuy yodlash maqsadida ko‘p bora chalinganda sozandaning mahorati oshadi.

4. Ashula, qo‘shiq va umuman xonandalar ijro qiladigan janrlarni kuy sifatida chang cholg‘usida ijro etganda, sozanda shu asarning so‘zlarini yodlab olib,

so‘larning bo‘g‘inlariga qarab shtrix qo‘yamiz, nafas oladigan joyida nafas olib, nola, qochirim qiladigan joylarida ichki ovozida aytib turib, sozida ijro qiladigan bo‘lsa, a’lo darajadagi ijro bo‘lar edi.

5. Cholg‘u kuylarni ijro qilganda esa har bir sozanda o‘zicha ijodiy yondashmog‘i kerak. Ya’ni o‘z didi, farosati va ijrochilik tajribasiga tayanmog‘i lozim. Har bir kuyning o‘ziga xos xarakteri, ruhiyati va o‘z bezaklari mavjud. Yosh ijrochilar kuylarni ijro etishda albatta ustozlari bilan maslahatlashishi, yoshi katta ijrochilardan ibrat olsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

6. Mazkur asarlarni o‘rganish uchun ularni ijro etilgan magnit yozuvlarini eshitsa ham, foydadan holi bo‘lmaydi.

7. Sozandalar va umuman san’at ahli asar ijrosiga o‘tishdan oldin ko‘ngil pokizaligini saqlab, kuylarni aynan ibodat qilayotgandek ijro qilishlari darkor. Shunda kuyni tinglayotgan shinavandalarning ham ko‘ngillari orom olib, ruhan tetiklashadilar.

8. Sho‘x, raqsbop kuylarni ijrosida esa ijrochi tasavvurida xuddi oldida chiroyli raqqosa hirom aylayotgandek ijro etishi ko‘zda tutiladi.

9. Ijrochilikning barcha unsurlari bilan bir qatorda har bir kuyning o‘z surati borligini yoddan chiqarmaslik kerak, zero, kuyning muvaffaqiyatli ijro etilishi ham shunga bog‘liq.

***I.Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Chang ijrochiligining an’anaviy uslubida qanday bezaklar mavjud?
2. Kashishga ta’rif bering.
3. . Yakka zarb qanday ijro etiladi?
4. . Pirrang, rez va mayda rez haqida ma’lumot bering.

5. Chang cholg‘usi ijrochiligini o‘zlashtirayotgan talabalarga qanday tavsiyalar mavjud?

***II. Mustaqil mashg‘ulotlar.***

1. Yetuk chang sozandalarining ijrolarini magnit yozuvlarda tinglash.

2. Bu sozndalar ijro jarayonida qo‘llagan bezak turlarini aniqlash.
3. Qo‘llanilgan bezaklarni tahlil qila olish.
4. Mashq jarayonida bezaklarni qo‘llay olishni o‘rganish.
5. Mashq jarayonida tavsiyalarga amaliy yondoshish.

***III. O‘qish uchun adabiyotlar.***


1. Yu.Rajabiy “Uzbek xalq musiqasi” I, II, III, IV, V jildlar.T.,1955-1959y.
2. Yu.Rajabiy "Shashmaqom" I, II, III, IV, V, VI jildlar. T., 1966 -1975 y.
3. Xoltojiyev A., Begmatov S.– Madaniyat va san’at oliy o‘quv yurtlarining an’anaviy sozandalik mutaxassisliklari uchun “Chang sinfi dasturi” broshyurasi.
4. Azizboyev.S “An’anaviy cholgu ansambli” T., "Musiqa" 2009.
5. Ziyayeva M. “Dutor” T. 2008.

## 3. Chang cholg‘usida ijro etiladigan asarlar tahlili (nota yozuvi bilan)

### RA’NOLANMASUN

Utsoz sozanda, atoqli bastakor, betakror ovoz sohibi, O‘zbekitsonxalq artisti, akademik Yunus Rajabiy bastalagan ushbu musiqiy asar barcha milliy cholg‘ularda ijro etilgan. Xatto G‘oziy g‘azali bilan ashula shakli ham mavjud. Ammo chang ijrosi uchun mazkur asar juda qulay va eshitimli bo‘lganligi tufayli ko‘plab ijrochilar datsuridan o‘rin olgan.

A.Xoltojiyev chahg cholg‘usiga moslashtirdi. R.Xaydarova notaga oldi.




37
41
45
p
49
f
53
57
mf
f
61
65
f
69
rit.
p

## NAZZORA QIL

Ma’lumki, ashulalarning ko‘pchiligi so‘zlariga ya’ni ularga aytiladigan g‘azallarga asoslanib musiqasi bastalanadi. “Nazzora qil” ashulasi ham Alisher Navoiyning nazzora qil radifli g‘azaliga atoqli sozanda Komiljon Jabborov tomonidan bastalangan. Bu asar nafaqat ashula shaklida balki kuy tariqasida ham sozandalar tomonidan ijro etilib kelinmoqda. “Nazzora qil” asarini changa moslashtirilgan variantini notaga tushirib, ushbu kitobdagi kuylar safiga qo‘shildi.

R. Xaydarova chang chog‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




28
32
f
37
42
f
46
50
54
58
62


66
f
71
76
80
mf
84
88
p
92
96
mf
100
rit.
103

## HUMOR

“Tavois” ansambli bilan ijod qilib yurgan kezlarimda O‘zbekitsonda xismat ko‘rsatgan artist, atoqli bastakor, mohir sozanda Fahriddin Sodiqov qalamlariga mansub “Humor” asarini radioning ovoz yozish studiyasiga muhrlash harakatida edik.

“Tavois” ansambl bilan bu kuyni ijro etdik, ammo bilimdon ovoz rejissyori Anvar Tojiev shu asar boshiga yovvoyi bir muqaddima kerakligini ta'kidladi. Shunda radioning chaqiruv signali sifatida ustoz – Faxriddin Sodiqov bastalab, ijro etgan musiqiy kuy bo‘lagi shunga moslashtirildi. Bu ikkala kuyning pardalari har xil bo‘lib, ustozlarning maslahatiga ko‘ra kuyni asl holatini yo‘qotmagan holda birlashtirildi. Niyat qilamizki bundan buyon shunday ijro etilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Kitobga radio uchun ijro etgan variant notasini kiritishga jazm qilindi.

R. Xaydarova chang chog‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




49
54
p
59
64
69
73
77
Allegro
mf
p
82
87
mf
92
97
101
105


109
113
f
117
121
125
128
132
136
140
144
a tempo
149
153
rit.
piss

## SAYQAL

O‘zbek xalqcholg‘u musiqasiga tegishli bu asar ham ko‘p marotaba ijrochilar tomonidan notaga olingan, ammo ayni nota yozuvi chang cholg‘usining shtrix va bezaklari bilan boyitilgan.

R. Xaydarova chahg cholg‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




51
56
61
66
71
76
81
86
91
96
101
106
111


rit.

## YOLG‘IZ I

O‘zbek xalq musiqasi bo‘lmish mazkur asar uch qismdan iborat. Birinchi qismi vazmin suratda bo‘lib, ikkinchi va uchinchi qismlari yengilroq, sho‘hchan musiqiy matnlardan iborat. Yolg‘iz asarini mohir chang ijrochilari, ustozlarimizdan o‘rganib, aynan chang cholg‘usiga moslashtirilgan variantini notaga olindi

A.Xoltojiyev chahg cholg‘usiga moslashtirdi. R.Xaydarova notaga oldi.




51
56
61
66
p
f
71
76
83
89
95
101
107

# YOLG'IZ II




52
57
62
67
72
f
77
p
82
87
92
p

# YOLG'IZ III



## NAVRO‘ZI AJAM

Arab bo‘lmagan musulmon xalqlarining “Navro‘z” bayramiga bag‘ishlangan musiqiy asari bo‘lib, maqomning Segoh pardalarida yaratilgan. Farg‘ona - Toshkent yo‘lidagi ushbu kuyni ansambl ijrosidan chang cholg‘usiga moslab notaga olindi. Chang chog‘sida qo‘llaniladigan ko‘plab shtrix va qochirimlarni notaga olishga harakat qilindi. Tugallanish qismini barcha sozandalar turlicha ijro etishgan. Bizning utsozimiz Abdurahmon Holtojiyev variantlari nisbatan chang cholg‘usiga moslangan. Kitobga aynan shu ijro varianti kiritildi.

R.Xaydarova notaga oldi.




37
41
45
49
53
57
61
65
69
73
77
81
85


89
93
96
Allegro
100
104
107
110

**AJAM TARONALARI**

Bu kuy Navro‘zi Ajamning davomi bo‘lib, Farg‘ona-Toshkent yo‘liga mansubdir. Ansambl ijrosidan chang cholg‘usiga moslab notaga tushirildi. Ushbu asar chang cholg‘usi ijrosida o‘ziga hos yangrab, notaga olishda ijrodagi shtrix va qochirimlardan foydalanildi.

A.Xoltojiyev chahg cholg‘usiga moslashtirdi. R.Xaydarova notaga oldi.




33
37
41
45
49
54
58
62
66
70
74


78
81
85
89
93
97
101
105
109
113
117


121
125
129
133
137
141
145
149
153
157
161


165
169
173
177
181
186
190
194
198
202

# AJAM TARONALARI II




41
46
51
56
61
66
71
77
82


rit.

## BAYOT

Bayot I, IV, V. Bu turkum ham Farg‘ona-Toshkent maqomlaridandir. Ushbu turkumning ashula varianti mukammal bo‘lib, dastlab ashula tarzida ijro etib, so‘ngra chang cholg‘usiga moslashtirildi. Nota yozuvida chang cholg‘usi uchun zarur shtrix va qochirimlarni kiritishga harakat qilindi.

R.Xaydarova chang cholg‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




40
45
50
55
f
60
65
p
70
76
81
86
91


96
101
106
111
116
121
126
f
132
137
142
147
p
152


157
162
167
172
177
182
f
187
192
197
202
207
212


217
222
227
f
232
237
242
247
252
257
261
267
272
276
p

# БАЁТ IV



# BAYOT V

M.M. ♩ = 110




36
mf
40
f
44
48
52
rit.
57
p

## CHORGOH I

Chorgoh I, II, III, IV, V Farg‘ona-Toshkent maqomlari safiga kiruvchi ushbu turkum barcha milliy cholg‘ularimizda ijro etilgan. Xususan chang cholg‘usida ijro etilsa Chorgoh asari o‘ziga hos yangraydi. Chang cholg‘usi ijrosi uchun notaga olinib, kitobga kiritildi.

R.Xaydarova chang cholg‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




41
45
49
53
57
61
65
69
73
77
81
85


89
93
97
102
106
110
114
118
122
126
130
135


140
144
149
153
158
163
169
174
179
184
rit.

# CHORGOH II




37
40
44
48
52
56
60
64
68
72


75
79
83
87
91
95
99
102
106
109
p

# CHORGOH III




21
23
25
27
29
31
33
f
35
p
37
39


41
f
43
45
47
49
51
53
55
57
59
rit.

# CHORGOH IV




28
32
36
39
42
45
48
50
52
rit.

## MUHAMMASI BAYOT

Ustoz Abdurahmon Xoltojiyevning ta'kidlashicha “Surnay dasht Navosi” kuyini muqaddimasini “Muxammasi Bayot”ning boshlanichiga F.Sodiqov kiritgan. O‘zbekiston xalq artitsi Abduhoshim Ismoilov rahbarligidagi Yunus Rajabiy nomli maqom ansambli bu kuyni ijro etish jarayonida Abduhoshim Ismoilov ushbu asar muqaddimasini g‘ijjak cholg‘usida ijro etgan. Ayni shudavrdan boshlab bunday uslub“Muhammasi Bayot”ning barcha ansambllar ijrosi uchun urfga aylangan. Bu kuy bo‘lagichang cholg‘usiga moslashtirildi va hatto notaga olindi. “Muhammasi Bayot” Shashmaqomning Navo maqomiga kiruvchi muhammas cholg‘u kuylaridan biridir.

R.Xaydarova chahg cholg‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




27
Bozgo'y
f
31
35
39
43
II-hona
47
51
p
55
59
Bozgo'y
p
63
67
71


75
III-hona
79
83
87
91
p
95
f
100
Bozgo'y
104
108
112
116
IV Hona
f
120


V-hona
piss
f
VI-hona
Bozgo'y


172
176
p

## Muhammasi Husayniy

Shashmaqom tarkibidagi Navo maqomining Mushkilot qismiga kiruvchi "Muhammasi Husayniy"dir. Muhammas - beshlik; Shashmaqom doyra usuli va shu usulda ijro etiladigan maqomlar cholg'u qismlari ifodasi.

R.Xaydarova bu asarni chang cholg'usiga moslashtirdi va notaga oldi.




II Hona
33
pizz.
37
41
45
49
Bozgo'y
53
57
61
65
III Hona
69
73
77


81
Bozgo'y
85
89
93

# Muhammasi Nasrulloiy




Bozgo'y
III Hona
Bozgo'y

**SARAHBORI NAVO**

Shashmaqomning tarkibidagi uchinchi maqomning Nasr bo‘limi boshlanishidan xabar beruvchi qismi “Sarahbori Navo”dir. Akademik Yunus Rajabiyning nota yozuvidan farqli o‘laroq bu nota yozuvida chang cholg‘usining qochirimlari bilan boyitilgan.

R.Xaydarova chang cholg‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




58
p
63
68
73
78
84
91
97
p
103
108
113
118


123
128
133
f
138
144
149
f
154
159
165
172
177
182
187


192
mf
197
202
207
212
217
224
230
p
235
240
245
251
256




# TARONA I






# TARONA II




9
10
11
12
13
14
15
16
17


18
19
20
21
p
22
Suporish
23
M.M. ♩ = 104
24
28
32

**SARAHBORI DUGOH**

Shashmaqomning tarkibidagi to‘rtinchi maqomining Nasr bo‘limi boshlanishidan xabar beruvchi qismi “Sarahbori Dugoh”dir. Akademik Yunus Rajabiyning nota yozuvidan farqli o‘laroq bu nota yozuvi chang cholg‘usi qochirimlari bilan boyitilgan. Taronalari ham chang asbobi ijrosida o‘ziga xos yangraydi.

R.Xaydarova chang cholg‘usig moslashtirdi va notaga oldi.




44
f
48
52
56
p
60
64
68
73
78
f
82
87


91
p
95
99
103
107
f
111
115
119
mf
123
127
131


135
p
139
143
147
152
f
158
162
166
172
178
ff
183
p


187
191
195
201
205
209
213
217
222
227
p
231


235
239
f
244
248
252
256
260
264
p
268

# TARONA I



# TARONA II




31
34
f
37
40
43
f
46
p
49

# TARONA III

M.M. ♩ = 120



# TARONA IV



# TARONA V





# TARONA VI





## SAVTI CHORGOH

Shashmaqom to‘rtinchi maqomining ikkinchi guruh sho‘balariga kiruvchi dastlabki asar “Savti Chorgoh”dir. Akademik Yunus Rajabiyning nota yozuvidan farqli o‘laroq bu nota yozuvi chang cholg‘usi qochirimlari bilan boyitildi. G‘amgin bo‘lgan bu asar nafaqat ashula sifatida, balki cholg‘u kuy sifatida ham o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi va juda go‘zal yangraydi.

R.Xaydarova chang cholg‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




20
23
25
28
31
34
37
40
43
46
49


52
55
58
60
62
64
67
69
1.
2.

## TALQINCHAI SAVTI CHORGOH

Shashmaqom tarkibidagi to‘rtinchi maqomining birinchi guruh sho‘balariga kiruvchi ikkinchi asar “Talqichayi savti Chorgoh”dir. Akademik Yunus Rajabiyning nota yozuvidan farqli o‘laroq bu nota yozuvi chang cholg‘usi qochirimlari bilan boyitildi. Talqin usuli chang cholg‘usi ijrosida ba'zi murakkabliklarni tug‘dirganligi sababli ba’zi joylarini chang cholg‘usiga moslab o‘zgartirishlar kiritildi. Ammo bu asarning ijrosi murakkab bo‘lishiga qaramay talqin, talqincha, chapandoz kabi doira usullari chang cholg‘usi uchun juda mosdir.

R.Xaydarova chang cholg‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




35
39
1.
2.
43
47
51
55
59
63
67
71


75
79
83
87
91
95
99
103
107
111


115
119
123
128
132
1.
2.

## SARAHBORI IROQ

Shashmaqom tarkibidagi oltinchi maqomning Nasr bo‘limi boshlanishidan xabar beruvchi qismi “Sarahbori Iroq”dir. Akademik Yunus Rajabiyning nota yozuvidan farqli o‘laroq O‘zbekitson xalq artitsi Abduhoshim Ismoilov rahbarlik qilgan maqom ansambli ijrosidagi variantini notaga olindi. Asarning “dunasr” qismidan “muhayyari iroq” namudiga o‘tish qismi qisqartirilgan va namudga o‘tish soddalashtirilgan. Furovard qismida ham xanglari soddalashtirilib qisqartirilgan. Taronalarida oltita tarona o‘rniga to‘rttaga qisqartirilgan. Taronalari birinchi ikkinchiga, uchinchi to‘rtinchiga doira usullari bir hil bo‘lganligi sababli parda tuzuklari bir biriga moslashtirilib ixchamlashtirilgan. Cholg‘u kuy sifatida ijro etish uchun bu variant juda qulay.

R.Xaydarova chang cholg‘usiga moslashtirdi va notaga oldi.




26
29
32
35
38
41
45
f
48
51
53


f


84
87
90
93
96
99
102
105
108


111
114
117
121
pizz
125
130
134
f
137
140
p
143

# TARONA I




12
p
13
14
15
16
p

# TARONA III



# TARONA V




# TARONA VI




42
45
49
53
57
p
60
62
63
rit.

## Glossariy

**Akkord** – Italiyan tilidan olingan bo‘lib, birdamlik ma’nosini anglatadi. Turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo‘shilib, yaxlit xolda yangrashidir.

**Akustika** – YUnon tilidan olingan bo‘lib, tinglashga oid tushunchadir. Teatr, konsert zallarida tovushlarni binoning har bir barobar eshitilishidir. Fizika fanida tovushlarning kelib chiqishini o‘rganuvchi soha.

**Aksent** – Lotin tilidan urg‘u, ta’kidlash degan ma’nolarni bildiradi. Biror tovush yoki akkordni qattiq ijro etishdir

**Ansambl** – Fransuz tilidan birgalikda degan ma’noni anglatadi. Ma’lum bir asarni bir nechta ijrochi tomonidan ijro etilishi ansambl deyiladi.

**Artikulyasiya**– nemis tilidan mayda bo‘laklarga bo‘laman degan ma’noni anglatadi. Sozandalar ovozida surunkasiga kelgan tovushlarni ijro etish usullari. Barcha shtrix harakatlari orqali (ma’lum kuy jumlasi yoki frazasida) erishilgan natijalar yig‘indisi bo‘lib, muayyan shtrixlar asosida asarning barcha ifoda vositalari (temp, ritm, dinamika, registr)ning ham mutanosib va muvofiq ravishdagi ishtirokini ta’minlashiga artikulyasiya deyiladi.

**Sezgi** – inson organizmi tomonidan eshitish, ko‘rish, hid bilish, tana sezgisi, ta’m bilish va h.k. a’zolari orqali moddiy dunyoni anglaydi.

**Idrok:** Narsalar yoki hodisalarning sezgi a’zolariga bevosita ta’siri orqali ongimizda aks etishiga idrok deyiladi. Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda esa predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. O‘z ijrosini eshitgan sozanda tajribasiga tayanib uni tahlil qiladi va umumlashtirgan holda xulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi.

**Tasavvur** bilimning ibtidosi bo‘lib, bosh miyada  (analiz va sintez asosida) hosil bo‘ladi va tafakkurdan farqli o‘laroq ijrochi hayolida oldindan aks etadigan tushunchalar tizimi bo‘lib, badiiy ijodiyotning barcha turlariga xosdir.

**Registr** – Lotin tilidan ro‘yhat ma’nosini anglatadi. Ma’lum bir qism tovushqatorining ikkinchisi bilan qo‘shilishi registr almashinuvi deyiladi. Sozandalar ovozida va asarlarda uch qismga ajratiladi; pastki registr (ovozning

daromadi), o‘rta registr (miyonxat va kichkina avj qismlari), yuqori registr (dunasra va avj qismlari) deb yuritiladi.

**Repertuar – ijro dasturi –** barcha sozanda va sozandalarning biladigan va ijro eta oladigan ja’mi asarlari.

**His, tuyg‘u va hayajon (emotsiya):** Inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, kishi o‘zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofini o‘rab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotda bo‘ladi. Buning natijdasida shodu-xurramlik, qayg‘u va g‘am, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, jahl va g‘azab, hayratlanish, xafa bo‘lish kabi boshqa ko‘plab mayil va tuyg‘u (*ob’ektiv dunyoga sub’ektiv munosabat kechinmalari*)lar insonning emotsional his-hayajon holatini ifodalaydi.

**Emotsiya** (*tuyg‘u kechinmalarining shakli*) ijobiy va salbiy turlarga bo‘linadi. Ijobiylari: shodu-xurramlik, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, hayratlanish va boshqalar. Salbiylari: qayg‘u va g‘am, jahl va g‘azab, xafa bo‘lish kabilaridan tashkil topadi.

**Musiqiy ifoda** vositalari: tovush hosil qilish va uning akustik asoslari, musiqiy tovush, sozning tozaligi (intonatsiya), tovush tusi (tembr), nola (vibrato), usul (ritm), o‘lchov, sur’at, agogika, artikulyasiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

**Garmoniya** – YUnon tilidan bog‘lanish, ohangdoshlik degan ma’nolarni anglatadi. Bir yo‘la eshitilgan bir necha tovushlarning o‘zaro ohangdoshligidir.

**Diqqat –** musiqa san’atida ijrochining hissiy, intelektual, harakatga keluvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim shartidir. Musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa jamoa bo‘lib ijro qilishda u juda muhimdir. YA’ni ansambl bo‘lib avval doirachining ko‘tarilgan qo‘llari, auftakt, yakkaxon va jo‘rnavoz o‘rtasidagi ishora va harakatlarning hammasi musiqada diqqat deb ataladi.

**Urma torli cholg‘ular ijrochilik vositalari:** sozandaning o‘ng va chap qo‘llari yoki noxun (kastab-arabchada ) cho‘p, maxsus sozlanadigan kalit, barmoqlar harakati, musiqiy eshitish vositalaridan tashkil topadi.

**Tovush:** fizik hodisa bo‘lib, tarang tortilgan jism (sim, yassi plastinka va h.k.)ning tashqi ta’sir natijasida mexanik harakatga kelishi - tebranishi natijasida hosil bo‘ladigan jarayondir. Tabiatda qulog‘imiz ilg‘aydigan turli xil tovushlar mavjud. Lekin ularnig hammasini ham musiqiy tovush deb bo‘lmaydi. Musiqiy tovush o‘zining to‘rt xossasi, a) bir-biriga nisbatan baland pastligi, b) tusi (tembri), v) davomiyligi, ya’ni cho‘zimi, g) kuchi bilan shovqinli tovushlardan farq qiladi.

**Intonatsiya (lotincha - baland, yuqori):** Uning tozaligiga erishish uchun avvalo sozandaning cholg‘u asbobi sifatli ishlangan va chalinib tajribadan o‘tgan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari tovushning toza chiqishi ijrochining mahoratiga va kayfiyatiga ham bog‘liq. SHuningdek, cholg‘udagi qo‘shimcha pardalar (dopolnitelnaya applikatura) ni qo‘llash orqali ham tovushni past yoki balandligini muvofiqlashtirish mumkin.

**Tovush tembri** (tembr fr. — tovush bo‘yog‘i, tusi, xarakteri) tovush sifatining muhim omillaridan bo‘lib, har bir inson ovozi va cholg‘u asbobi tovushiga xos xususiyat.

**Vibrato – to‘lqinlatish, tovush nolasi:** tovush sifatini boyituvchi omillardan bo‘lib, u tovushga o‘ziga xos joziba baxsh etadi va go‘yo uni qizdirib jonlantiradi.

**Tovush kuchi:** Tebranish harakatinig kengligi va kuchiga bog‘liq. YA’ni tovush hosil qiluvchi membrananing tebranish miqyosi – amplitudasi qancha keng va kuchli bo‘lsa tovush ham shuncha kuchayadi. Dinamik o‘zgarishlarni uch asosiy guruhga taqsimlanadi:

a) turg‘un, ya’ni o‘zgarmaydigan;

b) asta-sekin o‘zgaruvchan, pog‘onama-pog‘ona kuchayib yoki pasayib boruvchi turlari mavjud: kuchsizdan (pastdan): ***pp-p-mp-mf-f-ff*** kuchliga va aksincha kuchlidan ***ff-f-mf-mp-p-pp*** susayib boruvchi;

v) qarama - qarshi - tafovutli (kontrastnыy) ***p-f, pp-ff*** va unga aloqador urg‘ular tovush kuchini oshirish va pasaytirish belgilari sifatida asar mohiyatini ochishda xizmat qiladi.

**Ijrochilik texnikasi:** Barmoqlar harakati, o‘ng va chap qo‘llar xarakati, bilaklarni xarakatchanligi, yumshoqligi kabi omillar kiradi.

**Ijrochilik holati**: cholg‘u sozida qanday o‘tirish, uni chalishga hozirlash va chalish uchun (butun tana, bosh, qo‘llar, oyoqlar, ) tayyor bo‘lish tushuniladi.

**SHtrix** (nemis. – chiziqcha, chizgi) rassomlarda yo‘g‘on, ingichka, qalin, to‘q chiziqchalar muayan portret obrazini ochib berganidek musiqada ham obraz yaratish uchun shtrixlar mavjud. SHtrixlar dastlab torli - kamonli cholg‘ularda, asosan skripkachilarda kamonni yurgizishda turli uslublar qo‘llanila boshlagan. Damli cholg‘ular ijrochilari ham ko‘pchilik shtrixlarni skripkachilardan o‘rganganlar. SHuningdek, urma torli cholg‘ularning o‘ziga xos shtrixlari ham kelib chiqa boshlagan.

**Col legno –** (yog‘och qismi bilan) torni cho‘pning yog‘och qismi bilan urib chalish. O‘ng va chap qo‘llar harkati ishtirokida har bir tovush etarli darajada cho‘zib alohida ijro qilinadi.

**Detache - detashe –** (fransuzcha detacer – alohida degan ma’noni bildiradi) Har ikki qo‘lning oddiy harakati ishtirokida erishiladi. Urma torli cholg‘ularda(chang va qonun), urib chalinadigan bittalik zarb. Har bir tovush etarli darajada cho‘zib alohida ijro qilinadi.

**Marcato – markato** (italncha «macare» - ajratib ko‘rsatish, urg‘u berish) - urma torli sozning keskin zarblari ishtirokida kuch bilan urg‘u berilgan tovushlar chalinadi.

**Staccato – stakkato** (italyancha alohida, qisqa-qisqa degan ma’nolarni bildiradi) u har ikki qo‘lning keskin lekin tez va engil uriladigan zarblari natijasida har bir tovush yarmigacha qisqartirib chalinadi.

**Staccatissimo – stakkatissimo -** stakkatoga qaraganda ham qisqa (yozilgan tovush cho‘zimining to‘rtdan biriga qisqaradi) va staccatissimo yozuvi bilan ifodalanadi.

**Martele – martele** (fransuzcha «marteler»-cho‘kichlamoq, zarb urmoq) bunda tovushlar o‘ng va chap qo‘llar o‘tkir zarbi va kuchli tovush chiqarish bilan bir xil dinamikada alohida bo‘rttirib chalinadi.

**Tenuto – tenuto –** o‘ng va chap qo‘llarning qattiq zarblari yordamida, ammo urg‘u bermasdan har bir tovush oxirigacha cho‘zib ijro qilinadi.

**Non legato - non legato –** har ikki qo‘lning yumshoq zarbi natijasida tovushlar bir-biriga bog‘lanmasdan chalinadi.

**Portato - portato -** o‘ng va chap qo‘llarning yumshoq harakati natijasida tovushlar cho‘zibroq bir-biriga bog‘langan holda ijro qilinadi.

**Portamento - portamento** - vokal ijrochiligi tajribasidan olingan shtrix bo‘lib, tovushdan tovushga engil, nozik sirpanib o‘tishni ifodalaydi.

**Rrang - rrang** – changda chap qo‘lni yumshoq –mo‘’tadil holatda, o‘z holicha kerakli simga yo‘lantirib, o‘ng qo‘l bilan esa qattiqroq asosiy simga zarb urish natijasida amalga oshiriladi.

Bu shtrix ustoz Faxriddin Sodiqov ijro uslubida shakilandi va go‘zal bezaklardan biri deb tan olindi.

**Pirrang - pirrang –** Pirrang shtrixida to‘rta zarb bo‘ladi. To‘rtinchisi chap qo‘lda tugaydi. Forshlaglar chap qo‘ldan boshlanadi. Chap qo‘l kuchli xissaga to‘g‘ri keladi. Chap qo‘l yetakchi. Bu chang cholg‘usiga hos amaliyotda keng qo‘llaniladigan bezakdir. Odatda, mazkur bezak an’anaviy ijrochilikdagi mavjud barcha cholg‘ularda ham keng qo‘llaniladi. Changda esa, o‘ziga hos xususiyatli tomonini to‘laroq namoyon etadi. Yani, bezak sifatidagi harakterni chang cholg‘usida ochib berish, boshqa cholg‘ularga nisbatan qulayroq va mosdir.

**Tremalo -tremalo ( rez) -** cho‘plarning va noxunlarning torlarga tez –tez va uzuluksiz almashtirib urilishi.

**Legato – legato -** birinchi tovushidan boshqa tovushlari o‘ng va chap qo‘llar zarbi-attaka ishlatilmaydigan shtrix (italyancha bog‘liq degan ma’noni bildiradi). Bu shtrixda birinchi zarbni berib boshqalarida ishtirok etmaydi va tovushlar bir-biri bilan uzluksiz bog‘lanib keladi.

**Legatissimo** – tovushlarning yanada ko‘proq bog‘liqligini talab qiladigan shtrix.

**Glissando – glissando** – kuyning sirpanchiq harakati.

**Artikulyasiya** barcha shtrix harakatlari orqali (ma’lum kuy jumlasi yoki frazasida) erishilgan natijalar yig‘indisi bo‘lib, muayyan shtrixlar asosida kuyning

barcha ifoda vositalari (temp, ritm, dinamika, registr)ning ham mutanosib va muvofiq ravishdagi ishtirokini ta'minlashiga artikulyasiya deyiladi.

**Zarb** arabcha **-** urmoq, urish ma'nosini bildiradi va mazkur cholg'ularda asosan cho'p va tayoqchalar yordamida zarb bilan urish, barmoq bilan chertish, silkitish va boshqa harakatlar orqali tovush hosil qilinadi.

**Membranafon -** qoplamali cholg'ular, ularga maxsus teri yoki plastik qoplangan baraban, nag'ora, doira, tom-tom, litavralarning turlari kiradi.

**Avtofon -** o'zi tovush beruvchi cholg'ular bo'lib, ularning vujudiga mexanik ta'sir qilish natijasida o'z tanasidan tovush hosil bo'ladi. Bular: turli tarelkalar, qayroq, safoyil, uchburchak (treugolnik), quticha (korobka), ksilofon va boshqalar.

**Rivojlanuvchi yoki qiyosiy eshitish qobiliyati**: sozandaga bir tovushni eshitgandan so'ng boshqalari bilan taqqoslagan - qiyoslagan holda balandligini aniqlaydi.

**Mutlaq (absolyut) eshitish qobiliyati** bor sozanda esa tovush balandligini to'g'ridan - to'g'ri boshqalari bilan taqqoslamasdan aniq ayta oladi.

**Zohiriy (tashqi) eshitish** orqali yakkaxon sozanda, hofiz, ansambl yoki orkestr tomonidan ijro qilingan asarni barcha jihatlari: balandligi, tembri, usuli va musiqiy matnini anglab oladi. Ma'lumki bunday ustozona uslub sharq xalqlarida juda keng tarqalgan bo'lib, qadimdan otadan bolaga, ustozdan shogirdga ayniqsa musiqiy meros namunalari og'zaki, ya'ni eshitish-tinglash orqali amalga oshirilgan va bizgacha etib kelgan.

**Botiniy (ichki) eshitish:** Bunda insonning ichki tuyg'usi, ya'ni oldin eshitilgan, qulog'iga tanish bo'lgan hayolidagi asar ko'zda tutiladi. Bu hissiyot beshta jihatda namayon bo'ladi:

a) oldin kimningdir ijrosida eshitilgan va xotiraga o'rnashib qolgan musiqiy obrazlar;

b) o'zi qachonlardir ijro qilgan asar yoki kuy qismini xotirlash;

v) asarni notadan cholg'u asbobisiz o'qigan holda sadolanishini tasavvur qilish;

g) chalish  yoki o‘quvchiga tushuntirish uchun asar va uning qismlari kompozitsiyasini hayolda shakllantirish;

d) ijro jarayonida birdaniga tayyorgarliksiz (ekspromt) badiha (improvizatsiya), namud (ko‘rinish), avj, (gul partav) yoki yangi qismlar ijod qilish.

Botiniy va zohiriy eshitish yillar o‘tishi bilan bilim, tajriba, malaka oshgani sayin rivojlanib, sayqallanib boradi. SHuning uchun ham ta’limning birinchi qadamlaridan boshlab musiqiy eshitishni va eshitish nazoratini rivojlantirish o‘ta muhimdir.

**Musiqiy xotira -** inson ruhiy jarayonining muhim jihatlaridan biri yod olish va xotirada saqlash bo‘lib, uning mohiyati esda saqlab qolish va zarur paytda o‘sha xotiradagilarni ma’lum bir vosita orqali yuzaga chiqarish-namayon qilish hisoblanadi.

**Xotira turlari:**

a) tovush balandligi, kuchi, tembri, lad tizimi, usuli, ohangdoshligi, kuy va qo‘shiq shaklini esda saqlash bilan bog‘liq xotira turlari;

b) inson qiyofasi, tabiat manzarasi, buyum namunasi, biror obraz, nota yozuvi, ularning cho‘zimi, turoqlanishi va boshqalarning qog‘ozda – yozuvda, ekranda ifodalanishi ko‘zda muhrlanadi va ko‘rish xotirasiga kiradi;

v) turli harakatlarni eslab qolish va uni qaytarish (dirijerlik, raqs, pantomima va h.k.), cholg‘u asbobini tana sezgi organlari (lab, qo‘l va barmoqlar, nafas organlari harakati va h.k.) sezib eslab qolinishi sezgi-harakat xotirasi;

g) esnash, kulish, yig‘lash, lazzatlanish, ta’sirlanish, emotsiya tuyg‘ularini esga olib o‘zida aks ettirish his-hayajon xotirasi;

d) hikoya, roman, she’r, maqol, topishmoq va boshqalar so‘z-mantiq xotirasi turlariga kiradi.

Xotirani yanada mustahkamlash uchun ustoz sozandalar (G.G.Neygauz) tomonidan musiqiy asarni yod olishda quyidagicha yo‘l tutilishi uqtiriladi:

a) asarni nota bilan cholg‘u asbobida chalib esda saqlashga harakat qilish;

b) notasiz cholg‘uda yoddan chalish;

v) cholg‘u asbobisiz notaga qarab ko‘rish orqali ko‘z xotirasida mustahkamlash;

g) notasiz va cholg‘u asbobisiz hayoldan o‘tkazish orqali musiqiy xotira mustahkamlanadi.

Musiqiy xotira mustahkam bo‘lishi uchun nafaqat aqliy xotira (quvvaiy hofiza), balki, «qalb xotirasi» zarurligini ko‘pchilik olimlar ta’kidlashadi.

**Usul sezgisi** musiqiy asarlarning tuzilishida eng asosiy omillardan biri bo‘lib, ijrochilik jarayonida katta ahamiyatga ega. U inson organizmi bilan tabiatdagi o‘zaro o‘lchov va ritmik bog‘liqlik hamda mutanosiblikni ifodalaydi. Bunda insonning yurak urishi, nafas olishi, qadam tashlashi, hissiy (emotsional) harakat sezgilari tabiatining barcha jihatlari bilan bog‘liqdir.

**Rubato** — lotincha – o‘g‘irlangan, notalarning cho‘zim miqdori aniq saqlanmagani holda ijrochining xohishi bo‘yicha kengaytirib yoki qisqartirib ijro qilish.

**Agogika** — lotincha - yurgizish, ergashtirish. Musiqa ijrochiligidagi badiiy niyatni ko‘zlab asar sur’atini biroz o‘zgartirish, ya’ni tezlatish yoki sekinlatishni bildiradi.

**Urma torli cholg‘ularda ijrochilik mahoratiga**:

a) ijrochi o‘ng va chap qo‘llar texnikasi;

b) ijrochilik mahorati texnikasi;

v) bilaklar harakati;

g) barmoqlar harakati va ularni rivojlantiruvchi omillar kiradi.

**Gammalar chalish tamoyillari:**

a) gammalarning turlari diatonik, major, minor, tabiiy, garmonik, melodik, xromatik va butun tonlardan tuzilganlari;

b) barcha gammalarning asosiy pardalaridan tuzilgan uch tovushliklari va ularning aylanmalari, D7 va uning aylanmalari, kichraytirilgan etakchi VII7 va uning aylanmalari hamda ularning asosiy tonlikka echilishi;

v) gamma chalishda cholg‘u asbobining to‘liq tovush ko‘lami (diapozoni)ni qamrab olinishi;

g) har xil ritmik ko‘rinishda, ya’ni gamma ikki oktava chalinsa kvartollar bilan, ikki yarim yoki uch oktava chalinsa triollar bilan shakllanadi.

**Arpedjiolar** ikki va uch oktava oralig‘ida triollar bilan ikki yarim oktava oralig‘ida kvartollar bilan, D7 va kich. VII7 lar ikki va uch oktava oralig‘ida kvartollar (ikki yarim oktava oralig‘ida chalinadi) bilan chalinadi.

Asosiy tonlik arpedjiosi aylanmalari triol va kvartol shaklida ham chalinadi. D7 va kich. VII7 lar esa kvartol shaklida ijro qilinadi;

d) gammalarni detache, legato, staccato, marcato, portato kabi turli shtrixlarda ifodalash;

e) f, p, sf, fp  kabi har xil dinamik belgilar  bilan chalish;

j) turli applikaturani qo‘llagan holda ijro etish bilan ijrochilik mahorati rivojlantiriladi.

d) gammalarni detache, legato, staccato, marcato, portato kabi turli shtrixlarda ifodalash;

e) f, p, sf, fp  kabi har xil dinamik belgilar  bilan kuylash;

j) turli applikaturani qo‘llagan holda ijro etish bila ijrochilik mahoratini rivojlantirish.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. ( elektron versiyasi)
5. Olimboyeva. K. M.Ahmedov. O'zbekiston Xalq sozandalari. T., 1959
6. Karamatov F.– "Узбекская инструментальная музыка" T.,1972
7. Rajabiy I.– "Maqomlar masalasiga doir" T., 1963
8. Fitrat A.– "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi"
9. Семёнов А.А.– "Трактат по музыке Дарвеш Али"
10. Векслер С.М.– "История узбекской музыкальной культуры" Т., 1965
11. Xoltojiyev A., Begmatov S.– Madaniyat va san'at oliy o'quv yurtlarining an'anaviy sozandalik mutaxassisliklari uchun "Chang sinfi dasturi" broshyurasi
12. Odilov A., Petrosyans.A. Chang darsligi . –T., 1961
13. Одилов А .Гаммы, упражнения и этюды для Чанга – Т., 1968
14. А. Одилов. Пьесы для Чанга. –Т., 1974
15. Говорушко Р. Методика обучения игре на народных инструментах.–L., 1975
16. Akbarov. I .Musiqa lug'ati. –T., 1997
17. Асафев. Б. Музыкальная форма как прогресс. Книга. –М. –L., 1930-1947

18. Б.Гиенко. Инструментовка (для оркестра узбекских народных инструментов) –Т., 1970
19. Методика обучения исполнителства на узбекских народных музикальных инструментов. Сборник статьев –Т., 1987
20. Yu.Rajabiy “Uzbek xalq musiqasi” I, II, III, IV, V jildlar. T.,1955-1959
21. Yu.Rajabiy “Shashmaqom” I, II, III, IV, V, VI jildlar.T., 1966 -1975
22. Azizboyev S.”An’anaviy gijjak ijrochiligi”. T., 2005
23. Lutfullaev A. “Chang tarannum etganda” T., 2004
24. Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir” T., 1963
25. Samadov R.”An’anaviy doira ijrochiligi” T., 2004
26. Sobirov A. “Nay navolari”T., 2000
27. Toshpulatova I. “An’anaviy dutor ijrochiligi”T., 2004
28. Xoltojiyev A. “An’anaviy qonun cholg‘usi ijrochiligi” T., 2005
29. Qosimov R. “Rubob navolari” T., 1993
30. Qosimov R. “Ud” T., 2002
31. Qosimov R. “An’anaviy tanbur ijrochiligi” T., 2002
32. Qosimov R.”An’anaviy ijrochilik” “Fan” nashriyoti T., 2007
33. Qosimov R.”An’anaviy rubob ijrochiligi” ”O‘zbekistan”nashriyoti T., 1999
34. Abdukarimov M. “Tanbur” T., 2008
35. Shoraxmetov Sh. “Maqom yo‘llaridagi mashqlar va kuylar to‘plami” “Bilim” nashriyoti, T., 2005
36. Ziyayeva M. “Dutor” T., 2008
37. Azizboyev.S “An’anaviy cholgu ansambli” “Musiqa” nashriyoti Tosh. 2009
38. Alimboyeva K., Ahmedov M.– “O‘zbek sozandalari” T. 1965